

E.O. URALOV

**GEOGRAFIYANI  
O'QITISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**URALOV ELIBOY OMONOVICH**

**GEOGRAFIYANI  
O‘QITISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun

**Toshkent – 2023**

### **Annotatsiya**

Mazkur uslubiy qo'llanma Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari, pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, geografiyani o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslardan, modulli darslardan foydalanish yo'llari, geografiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim, loyihalash va kartografik texnologiyasi kabi ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Uslubiy qo'llanmadan oliy ta'lim muassasalarining Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, umuman shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, boshlang'ich ta'lim kafedrasida professori v.b.PhD Z.A.Ismatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasida professori v.b., g.f.d. A.K.Urazbayev

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil "18" noyabrda 3-sonli qarori bilan nashirga tavsiya etilgan.

## KIRISH

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy fanlar ta’limida ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Maktab tabiiy fanlarining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarga bo‘lgan talablar keskin o‘zgardi. Shuningdek maktab boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarida ham tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash munosabati bilan o‘qitish metodikasida ham qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorining Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini ko‘tarish va umumta’lim muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlar dasturida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, amaliyot bilan bog‘lash, o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratish belgilandi.

Shu munosabat bilan 2-qismdan iborat mazkur “Geografiya o‘qitish metodikasi” (tabiiy fanlar) o‘quv qo‘llanmasi tayyorlandi. Ushbu o‘quv qo‘llanma Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi “Geografiya o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha talabalarda geografiya fanini o‘qitishda metod va o‘rgatishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, geografiya fanlarni o‘qitishga oid malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalash hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik xususiyatlarini hisobga olish, ularda tabiatga bo‘lgan ongli munosabatini tarbiyalash, fanga doir amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘zlashtirilgan barcha mavzular bo‘yicha amaliy ishlar va tajribalar o‘tkazish, laboratoriya ishlarini tashkil qilish, o‘tkazish, ularga doir xulosalar chiqara olish, tabiat qonuniyatlarini munosabatlarini to‘g‘ri aniqlash kabi kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Mazkur uslubiy qoʻllanda fanni oʻqitish tamoyillari, fanga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari, geografiyani oʻqitishni ogʻzaki va koʻrgazmali metodlari, amaliy metodlar turlari hamda tavsifi, oʻquv ishlarini tashkil etish shakllari, oʻqitish vositalari, uning fanlar tizimidagi oʻrni atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, “Tabiiy fanlar” va “Tabiatshunoslik” darsliklari bilan tanishish va tahlil qilish kabi maʼlumotlar berilgan.

Uslubiy qoʻllanmada mustaqil tayyorlanish uchun nazorat savollari, test topshiriqlari, fanning asosiy tushunchalari glossariy va adabiyotlar roʻyxati keltirilgan.

Uslubiy qoʻllanmadan oliy taʼlim muassasalari boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi boʻyicha taʼlim olayotgan talabalar, magistrlar, oʻqituvchilar, ilmiy xodimlar foydalanishlari mumkin.

## **1-§. GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

Ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘qituvchining bevosita rahbarligida, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida geografik qobiqning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi va bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar uchun o‘quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o‘qitishdan ko‘zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘qituvchi uchun ta’lim jarayoni o‘quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o‘zgartirishlar kirtadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faoliyati va o‘qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg‘un ravishda tashkil etilgandagina o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

Polshalik didaktik olim V.Okonning Vvedenie v obshuyu didaktiku<sup>1</sup> kitobida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo‘llari ko‘rsatilgan:

### **1. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:**

- O‘quv materiali bilan dastlabki tanishish;
- O‘quv materiallarini o‘rganish;
- O‘zlashtirilgan bilimlarni avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan taqqoslash;
- Bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;

---

<sup>1</sup> В.Оконь. Введение в общую дидактику. М., Высшая школа.1990, 382с

- O‘zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo‘llash.

## **2. O‘quvchilarning bilish faoliyatini mustaqil ish asosida tashkil etish:**

- Muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarish;
- O‘quv topshiriqlarining maqsadini aniqlash;
- Mustaqil izlanish orqali savollarga javoblar topish;
- Nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar asosida javoblarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish;

- Bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;
- Bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash.

## **3. O‘quvchilarning bilish faoliyatini ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:**

- O‘quv faoliyatini amalga oshirish maqsadi, borishini aniqlash;
- O‘quv faoliyatning modelini tuzish;
- Faoliyatni bajarish namunasini ko‘rsatish;
- O‘quvchilar tomonidan ishni bajarish;
- Faoliyatni takrorlash va xatosiz bajarishni o‘rganish.

## **4. O‘quvchilarning bilish faoliyatini ahloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:**

- O‘qituvchining ko‘rsatmasi yoki tavsiyasiga binoan, tavsiya etilgan adabiyotlarni topish;
- Qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar bilan tanishish;
- O‘rganilgan axborotlarni tahlil qilish va baholash;
- Adabiyot muallifining jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy sohasida yoki fan rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash va baho berish;
- O‘quvchilarning o‘z xulqi va ahloqiy sifatlarini rivojlantirish yuzasidan umumiy xulosasi.

Ta’lim jarayonini tarbiya bilan, bilim, ko‘nikma va malakalarni bir-biri bilan ajratilgan holda shakllantirishga mo‘ljallangan o‘quv faoliyatini tashkil etish mumkin emas.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko‘nikma va malakalarni bir - biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish va an'anaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini yalpi o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ularning aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining sub'ektiga aylanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarni vujudga keltirishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual va kichik guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

**O'quvchilarning bilish faoliyatini individual tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:**

- O'quv topshirig'ining didaktik maqsadini aniqlash;
- Mustaqil izlanish maqsadini amalga oshirish yo'llarini aniqlash;
- O'z mustaqil ishini tashkil etish;
- O'quv materialini mustaqil o'rganish;
- O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash;
- Olingan natijani loyihalash, uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;
- Natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish.

O'quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi. Modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Geografiyaning o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham

foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondashish imkoniyatlari mavjud. O'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruza va referatlar tayyorlash, turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

Ta'lim – tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, deb atlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar echishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

O'quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo'llarini belgilash;

- O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishish;

- Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda maqsadni amalga oshirish yo'llarini loyihalash, mustaqil ishlarni tashkil etish;

- O'rganilayotgan ob'ektni avval o'rganilgan ob'ektlar bilan taqqoslash;

- Natijalarni loyihalash va uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;

- Natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish.

O'quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda guruhdagi har bir o'quvchi iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'quv muloqoti, bahsi, munozara, o'zaro yordamni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Geografiya o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lim texnologiyasining o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlarida foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Geografiya darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyati yalpi o‘qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg‘unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o‘qitishning kichik guruhlarda o‘qitish metodida yalpi o‘qitish kichik guruhlar bilan, “arra” metodida esa, o‘quvchilarni avval individual tarzda, so‘ngra kichik guruhlarda o‘qitish uyg‘unlashtirildi.

Geografiya darslarida o‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish uchun geografiya o‘qituvchisi quyidagi amallarni bajarishi lozim:

1. O‘rganilayotgan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning bilish faoliyatini qaysi shaklda tashkil etish;
2. O‘quvchilarning bilish faoliyatini loyihalash;
3. O‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash;
4. Dars davomida o‘quvchilarning bilish faoliyatidan olingan natijani tahlil qilish va uning maqsadga muvofiqligini tekshirib ko‘rish;
5. Zarur hollarda o‘quvchilarning bilish faoliyati loyahasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

Shunday qilib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, uni loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllari

<b>Bilish faoliyatini tashkil etish shakllari</b>	<b>O‘qituvchi faoliyati</b>	<b>O‘quvchilar faoliyati</b>
Yalpi ommaviy	Yangi mavzuni ko‘rgazmalilik	Yangi mavzuni tinglaydi,

o'qitish	asosida tushuntiradi, tayyor axborot beriladi, sub'ekt-ob'ekt munosabati vujudga keladi	eslab qoladi, savollarga javob beradi. Faoliyati sust bo'ladi.
Individual o'qitish	Har bir o'quvchiga tegishli topshiriqlar tayyorlaydi va tavsiya etadi. Yangi mavzuni o'quvchilar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlari vujudga keladi.	O'zlariga tegishli o'quv topshiriqlarni bajaradi, o'z bilimi, kuchi va iqtidoriga bo'lgan ishonchi ortadi, bilish quvonchini his etadi
Kichik guruhlarda o'qitish	Har bir kichik guruhga tegishli o'quv topshiriqlari tayyorlaydi va tavsiya etadi. Yangi mavzuni o'quvchilar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlari vujudga keladi.	Belgilangan o'quv topshiriqlarini bajaradi, o'zaro hamkorlik vujudga keladi, o'zaro nazorat amalga oshadi, bilish quvonchini his etadi.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hukmronligini saqlab kelayotgan an'anaviy ta'lim, o'quvchilarni yalpi o'qitishni va o'quvchilarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi mo'ljalga olinadi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

Shu sababli o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatining to'laqonli sub'ektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish maqsadida Geografiyani o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ildi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati nimalardan iborat?
2. An'anaviy ta'lim, jarayonida o'quv faoliyati kim tomonidan boshqariladi.
3. Geografiya ta'limi qanday maqsadlarni nazarda tutadi?
4. Geografiyaning o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda asosan qachon tashkil etiladi?

5. O‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarga qanday erishish mumkin.
6. Bilish faoliyatini tashkil etishning qanday shakllari mavjud?
7. Nima maqsadda Geografiyani o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati tug‘ildi?
8. Kichik guruhlarda o‘qitishda o‘quvchilarning faoliyati nimalardan iborat bo‘ladi?

## **2-§. INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI**

### **Pedagogik texnologiya (YuNESKO tarifi)**

O‘qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta‘sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Dastlab bu tushuncha 1940-1950-yillar o‘rtalarigacha «ta’limda texnologiya» deb qo‘llanilib, o‘quv jarayonida audiovizual texnika vositalarida foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o‘rtalarida AQShda qo‘llanila boshlagan. Bunda «texnologiya» va «ta’limda texnologiyasi» ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o‘qitishga nisbatan qo‘llanilgan.

1950 yillar o‘rtasida 1960-yillargacha «ta’limda texnologiyasi» ifodasi qo‘llanilib, bunda programmalashtirilgan ta’limni nazarda tutilgan.

1979 yilda AQSh Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiyasi tomonidan kompleks, integrativ jarayon deb ta’riflangan.

1980 yillarni boshidan pedagogik texnologiya deb ta’limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan

### **Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo‘lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o‘tib kelmoqda**

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko‘lamli, serqirra tushuncha bo‘lib, u ta’lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o‘z o‘rniga ega.

Ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakli va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkonini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

### **Pedagogik texnologiya**

Ishlab chiqarishdagi texnologiyalarda turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material (o'quvchi) ta'lim oluvchining aqliy, ruhiy, ahloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishi yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi.

### **Innovatsion jarayon qonuniyatlari**


Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni;

Nixoyat amalga oshirish qonuni;

Komillashtirish qonuni;

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanish va qaytish qonuni;

## **Innovatsion jarayon bosqichlari**



Innovatsion faoliyat sohaqida tadqiqot ishlari olib borganlar

Innovatsion faoliyat O.N.Gonobolin, V.A.Slastinin, N.V.Kuzmina, A.I.Shervanov va boshqalar ishlarida tadqiq etilgan.

### **Pedagogik texnologiya ta'riflari**

Texnologiya –biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at)

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lgan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumentli va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va amal qilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).

Pedagogik texnologiya - bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yon-dashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi. Texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

Pedagogik texnologiya – turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini o‘zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat (G.K.Selevko).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad talab etilgan o‘zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo‘lib, uni tadbqiq etishni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi (U.Nishonaliev).

Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir ( N. Saydahmedov)

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsni oldindan belgilangan ijtimoiy safatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir ( B.Ziyomammedov).

Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishning o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvidir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman) va h.k.

Innovatsion - (ingliz.) - yangilikni kiritish (tarqatish) degan ma’noni bildiradi.

**“Innovatsiya” - bu ta’lim; ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon.**

#### **Pedagogik texnologiya tasnifi**

- Qullanish darajasiga ko‘ra
- Falsafiy asosi bo‘yicha;
- Asosiy rivojlantiruvchi omili bo‘yicha;
- O‘zlashtirish konsepsiyasi bo‘yicha;
- Shaxsiy belgi sifatlariga ko‘ra o‘ynalganligi bo‘yicha;

- Mazmuni xususiyatlari bo'yicha;
- Boshqaruv turi bo'yicha;
- Ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha;
- Bolaga yondashuv bo'yicha;
- Ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha

### **Pedagogik texnologiya darajalari**

➤ **Umumpedagogik texnologiya** – turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi ta'lim muassasidagi yoki ta'limning ayrim pog'onasidagi barcha ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo'ladi.

➤ **Xususiya texnologiya** – ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o'z ichiga oluvchi pedagogik tizimlarni qamrab oladi.

➤ **Kichik texnologiyalar** - o'quv-tarbiya jarayonining ayrim qismlarini o'z ichiga oladi. U ayrim didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni hal qilish bilan shug'ullanadi.

### **Pedagogik texnologiyalarning asosiy mezonlari**

- Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanish.
- Tizimli, o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlarini o'zaro mantiqiy bog'liqligi.
- Samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishning kafolatlashi, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning ma'yor darajasida ekanligi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.
2. Pedagogik texnologiyaga o'zlashtirgan bilimlaringiz asosida o'z nuqtai nazaringizdan ta'rif bering.
3. Pedagogik texnologiyalar borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Pedagogik texnologiyalarning qanday ko'rinishlari mavjud?
5. Pedagogik texnologiyalarning darajalarini izohlang.
6. Pedagogik texnologiya tasnif asosida misol sifatida hozirgi an'anaviy maktab ta'limini tasniflang.

7. Pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlariga nimalar kiradi?
8. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab qaerda qo'llanilgan?
10. Pedagogik texnologiyaning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
11. Pedagogik texnologiyaning mezonlari deganda nimani tushunasiz?

### **3-§. PEDAGOGIK JARAYONNING XARAKTERI, BORISHI VA MAZMUNINI O'ZGARTIRISHDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

#### **Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari**

- Hozirgi an'anaviy ta'lim.
- Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish.
- O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish.
- O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish.
- O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish.
- Tabiatga muvofiqlashtirish.
- Rivojlantiruvchi ta'lim.

#### ***O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy g'oyani egallaydigan texnologiyalar***

1. Didaktik o'yin texnologiyalari.
2. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
3. Modulli ta'lim texnologiyalari.
4. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.
5. Loyihalash texnologiyasi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu texnologiya diqqat markazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni

anglab, tahlil qiladigan, mo‘ljalni ongli ravishda mustaqil, to‘g‘ri oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi turadi.

## **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI**

<b>t/r</b>	<b>Pedagogik texnologiyalarning funksiyalari</b>	<b>Didaktik o‘yinli</b>	<b>Muam-moli ta‘lim</b>	<b>Modul-li ta‘- lim</b>	<b>Hamkor-likda o‘qitish</b>	<b>Loyi-halash</b>
1	Ta‘lim beruvchi	<b>1</b>	<b>5</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>7</b>
2	Rivojlantiruvchi	<b>2</b>	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
3	Tarbiyalovchi	<b>3</b>	<b>6</b>	<b>3</b>	<b>5</b>	<b>9</b>
4	Ijodiy faoliyatga yo‘llovchi	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
5	Kommunikativ	<b>4</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
6	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
7	Aqliy faoliyat usullarini shakllantirish	<b>7</b>	<b>1</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>2</b>
8	O‘z faoliyatini tahlil va nazorat qilish	<b>10</b>	<b>7</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>11</b>
9	Kasbga yo‘llash	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>6</b>
10	Mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatish	<b>5</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>2</b>	<b>5</b>
11	Hamkorlikni vujudga keltirish	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>5</b>	<b>1</b>	<b>10</b>

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amho‘rlikni vujudga kelishi, o‘quvchilar shaxsini hurmat qilish va e‘zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy-psixologik va do‘stona muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o‘quvchi o‘quv faoliyatining su‘ekti sanaladi va o‘qituvchi bilan yagona ta‘lim jarayonining ikkita sub‘ekti hamkorlikda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Differensiya lotincha “difference” so‘zidan olingan bo‘lib, u yaxlit narsani turli darajadagi shakl va bo‘limlarga ajratish ma‘nosini bildiradi.

Differensial ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonining muayyan qismining didaktik maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan mazmun, vosita, metod va shakllarning majmuasidir.

Individuallashtirilgan ta'lim – o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va tempi hisobga olinganligi sababli mazkur jarayonni jadallashtirish, ularning o'quv topshiriqlarini bajarishda mo'ljalni to'g'ri olish va tezroq moslashishi, o'z imkoniyatlari darajasida bilim va ko'nikmalarni egallashlariga imkon yaratish.

Individuallashtirilgan ta'lim xususiyatlari

1. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlaydi
2. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlariga mos holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini bajaradi, ya'ni o'qitish vositalari (darslik, ko'rgazma va didaktik materiallar, kompyuter) bilan yakka tartibda ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaldagi bosqichi ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish, o'quv tarbiya jarayonini sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash kabi qator vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish har bir ta'lim muassasasining shu jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining bevosita vazifasi sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun Geografiya o'qituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo'yicha izlangan har bir olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflarning ichida eng maqsadga muvofiq'i YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati

va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Bu erda inson salohiyati deyilganda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o'qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni guruhlashtirishda dastlab quyidagilarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning turlari.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish masalasi Geografiyani o'qitish metodikasi fanining asosiy muammolaridan biri sanaladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish deganda, o'quvchilarda yuqori darajadagi motiv, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ongli ehtiyoj, natijaning yuqoriligi va ijtimoiy normalarga mos hulqning paydo bo'lishi tushuniladi.

Mazkur tipdagi faollik har doim ham vujudga kelavermaydi, faqat o'qituvchining maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishi va qulay pedagogik-psixologik muhitni tashkil etish mahorati tufayligina vujudga keladi.

Geografiyani o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish,

o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Biroq, pedagogik texnologiyalarning funksiyalarini taqqoslaganda bu funksiyalar bir xil darajada o'rin egallamasligi ma'lum bo'ldi.

Geografiya o'qituvchisi darsda o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan buyurtmalarni bajarish uchun avvalo ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi o'zida falsafa, psixologiya va pedagogikaning insonparvarlik g'oyalarini mujassamlashtiradi. Ushbu texnologiya diqqat markazida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyotga qo'llaydigan, ijodiy va ijtimoiy faol, turli hayotiy vaziyatlarni anglab tahlil qiladigan, mo'ljalni ongli ravishda mustaqil, to'g'ri oladigan shaxsni shakllantirish g'oyasi turadi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi orqali pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlikning vujudga kelishi, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod qilish va o'z - o'zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratiladi. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita sub'ekti hamkorlikda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

Pedagogning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, o'quvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning

ustunligi tufayli ta'lim jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'llarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash o'qituvchi o'quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri va nuqtai nazarini erkin bayon etish, ular bu borada xatoga yo'l qo'yishi mumkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari Konvensiyasiga amal qilinishini taqozo etadi.

Demokratizatsiyalash ta'lim tizimidagi formalizm, byurokratizmni yo'qotib pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi.

Hamkorlik – o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish, ularni ma'naviy, axloqiy, intellektual jihatdan rivojlantirish, bu jarayonni bir-biriga uyg'unlashtirish, faoliyatning natijasi va borishini hamjihatlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Demokratlashtirilgan jarayonni insonparvarlashtirish o'quv-tarbiyaviy jarayonining maqsadini amalga oshirish, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, o'quv mehnatining xarakteri va mazmunini o'zgartiradi va shaxsning uyg'unlikda rivojlanishiga qulay psixologik muhit yaratadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogik texnologiyaning qanday yo'nalishlari mavjud?
2. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirishning qanday afzalliklari mavjud?
3. Differensial talim texnologiyasi nima?
4. O'qitishning individuallashtirish texnologiyasi qanday xususiyatlarga ega?
5. Pedagogik texnologiyalarning an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farqi nimada?
6. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
7. Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

8. Geografiya ta'limida o'quvchi shaxsiga insonparvarlashtirilgan yondashuvning xususiyatlarini belgilang.

9. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o'qituvchi e'tiborini nimalarga qaratishi zarur?

10. O'quvchilarga tafovutlab yondashishining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

11. O'quvchilarga tindividual yondashishining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

#### **4-§. Geografiyani O'Qitish Jarayonida Didaktik O'Yinli Darslardan Foydalanish Yo'LLari**

**Didaktik o'yinlardan foydalanish borasida ilmiy-tadqiqot olib borgan geograf olimlarning fikrlari:**

1. L.M.Pancheshnikova, S.N.Praslova, G.A.Ponurova, L.V.Belyaeva, G.Ya.Lisenkova, V.V.Pyatunin - muammoli ta'limning bir shakli, darsning bir qismi, fikr o'stirishning bir shakli,

2. V.P.Korneev, Ye.G.Kolovskiy, V.M.Lyansevich, L.P.Simenova, A.V.Prokofev - bir butun darsga mo'ljallangan ta'limning bir shakli, bilimga qiziqishni o'stirishning bir shakli,

3. V.I.Sereda, M.G.Zaxarov, K.S.Momentova – sinfdan tashqari ish shakli yoki darsning bilim saviyasini kengaytirish sharti,

4. O.Mo'minov, P.Musaev, R.Qurbonniyozov, V.V.Nikolina, G.S.Kulinch, O'.Safarov, A.Xayitov, – o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash, bilim berish va rivojlantirishga yordam beruvchi o'qish va o'qishdan tashqari shakli,


5. M.Abdurahmonov, B.Abdurahmonov – geografiya ta'limi samaradorligini oshirish shakli deb fikr bildirganlar

#### **Didaktik o'yinli darslarning didaktik talablari**

✓ Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

- ✓ Amaliyotdagi va jamiyatdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;
- ✓ Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
- ✓ O‘yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;

### Didaktik o‘yinli darslarda amalga oshiriladigan funksiyalar



### Didaktik o‘yinli darslarning o‘ziga xos xususiyatlari:

Didaktik o‘yinli darslar	Mavzu mazmuni qanday bo‘lganda mazkur darsdan foydalaniladi	Darslarning didaktik funksiyalari	O‘quvchining faoliyati
Syujetli – rolli	Fanning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish,	Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob‘ektlari va tabiiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalar va	Muayyan rollarni bajarish orqali bilim, ko‘nikmalarni egallash

	tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda	bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish	
Ijodiy o'yin	Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda	Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish.	Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Auksion	Turli ob'ektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda	Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash.	Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtiradi
Konferensiy a	Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash	“olimlar” maqomini olib muayyan mavzularda izlanish olib boradi.
Matbuot konferensiya si	Fanning turli sohalarini qamrab olgan, o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo'lganda	Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash.	“olim” va “muxbir”lar maqomini olib mavzuni o'zlashtiradi.

### **Syujetli - rolli o'yinlar**

O'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarida mujassamlashgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda syujetli-rolli o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchilar syujetli-rolli o'yinlarni ko'pchilik hollarda matbuot konferensiyasi bilan almashtirib yuborishadi. Har ikkala o'yinning ta'lim

jarayonida qo‘llanishidan ko‘zlangan maqsad bir-biriga monand bo‘lsa-da, ular o‘rtasida katta farq mavjud. Bu holni didaktikada didaktik o‘yinlarga etarlicha tavsif berilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Bizning fikrimizcha, kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning, ob‘ektlar o‘rtasidagi aloqalarni badiiy ko‘rinish tarzida yoritish asosida vujudga keltirilgan muammolarni o‘quvchilarning o‘zlaridagi bilim zahiralarga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o‘yinlarni syujetli rolli o‘yinlar deb atash lozim. Bunda o‘yin syujeti jamiyatdan yoki tabiatdan olinadi. Ba‘zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg‘unlashtiriladi. Geografiya kursini o‘qitishda “, “Orol dardi-olam dardi”, “Tabiatni muhofaza qilish muammolari” mavzularni syujetli-rolli o‘yinlar tarzida o‘tkazish maqsadga muvofik.

Jumladan “Orol dardi-olam dardi” mavzusidagi syujetli-rolli o‘yinda syujet tabiatdan olinadi va jamiyatdagi munosabatlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

O‘qituvchi bu didaktik o‘yinni o‘tkazish uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- ✓ Orol muammolariga oid ma’lumotlarni to‘plashi;
- ✓ Dars ssenariysini o‘quvchilar va adabiyot o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tuzishi;
- ✓ Rollar va vazifalarni o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlashi;
- ✓ Muammoni hal etish yo‘llarini belgilashi lozim.

### **Ijodiy o‘yinlar**

O‘quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikda avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy qo‘llash va izlanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o‘yinlarni ijodiy o‘yinlar deb atash lozim.

Ijodiy o‘yinlardan masalan, “O‘rta Osiyoning tabiat zonalari”, ni o‘rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilar teng sonli guruhlariga ajratilib, ularni shartli ravishda “Geomorfologlar”, “Iqlimshunoslar”, “Tuproqshunoslar”, “Botaniklar”, “Zoologlar” va h.k belgilanadi. Har bir “mutaxassislar” ijodiy izlanib, go‘yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, ko‘rgazmali qurollarga tayangan holda, o‘z javoblarini asoslaydilar.

Mazkur didaktik o‘yinli darslarda hamma o‘quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa o‘quvchilarning o‘z bilimlariga, iqtidoriga ishonch uyg‘otadi va har bir o‘quvchi sidqidildan hamda jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi.

### **Ishbilarmonlar o‘yini**

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib, o‘quvchilar ma‘lum bir vazifani, topshiriqni bajarish orqali bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bilan bir qatorda, kasbiy sifatlarni tarkib toptirish, ularni ongli ravishda kasbga yo‘llash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga mo‘ljallangan didaktik o‘yinlar ishbilarmonlar o‘yini deyiladi. Ishbilarmonlar o‘yini ham boshqa o‘yinlar kabi, o‘qituvchi va o‘quvchilardan puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Shu sababli o‘qituvchi quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi zarur:

1. Qaysi mavzularni ishbilarmonlar o‘yini tarzida o‘tkazishni belgilash;

2. Didaktik o‘yinning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni aniqlash va rejalashtirish.

3. Didaktik o‘yin davomida o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv-bilish xarakteridagi muammoli vaziyatlar tizimini vujudga keltirish yo‘llarini aniqlash va loyihalash;

4. O‘quvchilarni didaktik o‘yinning maqsadi va vazifalar bilan tanishtirish, didaktik o‘yin talab etadigan vazifalarni taqsimlash va har bir o‘quvchiga tegishli aniq yo‘llanmalar, ko‘rsatmalar berish.

5. Mazkur o‘quv-bilish xarakteridagi muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘quvchilarning avvalgi mavzulardan o‘zlashtirgan bilim ko‘nikma va malakalarni tanish, odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

6. O‘quvchilarning didaktik o‘yinga tayyorgarlik faoliyatini kuzatish va nazorat qilish;

7. Ta‘lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talabiga mos holda tashkil etilgan darsda o‘qituvchi har bir mavzu mazmuniga bog‘liq holda o‘quvchilarni kasbga yo‘llashi va shu kasblarini egallashlari uchun qanday bilimlarga ega bo‘lishi kerakligini qayd etishi lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlarning asoslarini, jumladan Geografiyani juda yaxshi o‘zlashtirgan, bilimdon, zukko shaxslar bozor iqtisodiyoti sharoitida, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ko‘proq tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlariga imkon yaratilishi qayd etiladi. Agar ular fan asoslarini yaxshi bilmasalar, tadbirkorlik bilan shug‘ullana olmasliklari, shug‘ullansalar ham o‘z birjasiga yoki korxonakonserniga foyda keltira olmasliklari, oldi-sotdi jarayonlarida inqirozga duch kelishi va ish o‘rinlarini yuqotishlari mumkin. Respublikamizda “Toshkent”, “Turkiston”, “Osiyo” va shu kabi tovar birjalari, ko‘shma korxonalar, fermer xo‘jaliklari bo‘lib, ular jahonning juda ko‘p mamlakatlari bilan tijorat ishlarini amalga oshirib, sanoat korxonalariga ko‘prok xom-ashyo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva mollari xarid kilib, ularni aholiga etkazib berish bilan shug‘ullanayaptilar, shu sababli bunday birjalarda ishlaydigan ishbiarmonlar qishlok xo‘jaligining nazariy asoslari bo‘lgan Geografiya fan asoslarini yaxshi bilishlari kerak.

Modomiki shunday ekan, Geografiya darslarida bozor iqtisodidagi muammolari hal etishga yo‘naltirish hozirgi vaqtda eng dolzarb muammo hisoblanadi.

### **Konferensiya darslari**

Didaktik o‘yinli darslar ichida konferensiya darslari muhim o‘rin tutadi. Konferensiya darslari o‘quvchilarning bilish faoliyatini

faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishda, ularni qo‘shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda, ongli ravishda kasb tanlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi konferensiya darsini o‘tishdan avval dars mavzusini, maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olib shu mavzuga oid qo‘shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko‘zdan kechiradi. Mazkur dars o‘tkazishdan 10 kun oldin dars mavzusi e‘lon etilib, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun adabiyotlar tavsiya qilinadi. E‘lon qilingan didaktik o‘yinli darsda “olimlar” rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, har bir o‘quvchining qiziqishi va qobiliyatiga yarasha ma‘ruza tayyorlash o‘quvchilarning ihtiyorida bo‘ladi. Darsga tayyorgarlik davrida o‘qituvchi tomonidan ijobiy rag‘batlantirishning ustunligi va muvaffaqiyatga yo‘llovchi o‘qituvchining muloqot madaniyati, o‘zaro yordami o‘quvchilarning darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishning muhim omili sanaladi.

Ilmiy konferensiya darsini quyidagicha o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi “olimlar” bilan tanishtiradi.

2. Ilmiy ma‘ruzalarni tinglash “Olimlar” mavzu yuzasidan tayyorlagan ma‘ruzalarini ko‘rgazmali qurollar asosida bayon etadilar.

3. Ma‘ruzalar muhokamasi. Bunda “Olimlar” va sinfdagi boshqa o‘quvchilar o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs, munozara o‘tkaziladi.

4. Ilmiy konferensiya yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta‘kidlab, yakunlaydi.

5. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi

### **Matbuot konferensiyasi**

Matbuot konferensiyasi sinfdagi barcha o‘quvchilarning o‘quv - bilish faoliyati faol bo‘lishi bilan xarakterlanadi. O‘qituvchining matbuot

darsiga tayyorgarligi bir muncha murakkabroq. O'qituvchi matbuot konferensiyasini o'tkazishdan bir hafta avval sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'ladi. Ularning taxminan 30% parrandalar seleksiyasi sohasida ishlayotgan olimlar va parrandachilik fabrikalarining mutaxassislari, qolganlari respublikamizda nashr qilinadigan gazeta va jurnallarning muxbirlari rolini bajaradilar.

Gazetalardan respublikamizda nashr qilinadigan "O'zbekiston ovozi", "Qishloq haqiqati", "Xalq so'zi", "Toshkent oqshomi", "Turkiston", "Toshkent haqiqati", jurnallardan "Fan va turmush", "Qishloq xo'jaligi", "Saodat", "Sihat-salomatlik"ni olish mumkin.

Shundan so'ng, har qaysi gazeta va jurnal muxbirlarining matbuot konferensiyasida beradigan savollari o'quvchilar yordamida tuziladi. Bu savollar muhokama qilinayotgan muammoni har tomonlama qamrab olishi kerak.

Savollar mazmuni muhokamadan o'tgandan so'ng, gazeta va jurnal muxbirlari va seleksiyachi olimlar roli o'quvchilarning xohishiga ko'ra taqsimlanadi.

O'qituvchi parrandachilik seleksiyasi bilan shug'ullanadigan olimlar va mutaxassislar rolini bajaradigan o'quvchilar bilan alohida tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Ularga qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va savollarga javoblar topish haqida ko'rsatma beradi. Savollarga beriladigan javoblar qisqa, aniq, ilmiy jihatdan asoslangan, mahalliy materiallarni qamrab olgan bo'lishi lozim. O'qituvchi ana shu javoblarni oldin ko'zdan kechirishi, agar ularda juz'iy kamchiliklar bo'lsa, ularni to'g'rilashi, to'ldirishi kerakligini o'quvchilarga topshiradi.

Muxbirlar rolini bajaradigan o'quvchilar ham savollarga javoblar topishi olimlar va mutaxassislar bilan muloqotga kirishi uchun etarli darajadagi bilimlarga ega bo'lishini ta'minlanishi kerak.

Mazkur darsga hamma o'quvchilar ular qaysi rolni bajarishidan qat'iy nazar qizg'in tayyorgarlik ko'rishi lozim.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Geografiya o'qitish jarayonida didaktik o'yinli darslarni tashkil etish yo'llari nimalardan iborat?

2. Didaktik o‘yinlarning turlarini sanab bering.
3. Didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy tushuncha bering.
4. Didaktik o‘yinlarning mazmuni va mohiyati nimalarda aks etadi?
5. Didaktik o‘yinli darslarga qo‘yiladigan talablar qanday?
6. Geografiyani o‘qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning turlariga ta’rif bering.
7. Syujetli-rolli, taqdimot, ijodiy, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin mashqlar bir biridan nimasi bilan farq qiladi?
8. Didaktik o‘yinlar deganda nimani tushunasiz?
9. Didaktik o‘yinlarning qanday turlarini bilasiz?
10. Didaktik o‘yinlar geografiyani o‘qitishda qanday ahamiyatga ega?
11. Didaktik o‘yinlarning qanday afzalliklari mavjud?

## **5-§. GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA MODULLI DARSLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI**

### **Modulli ta’lim texnologiyasi**

Modulli ta’lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi.

Geografiyani o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya’ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o‘quvchilar mustaqil o‘zlashtirishlari uchun o‘quv topshiriqlari tuziladi. Shu o‘quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o‘tkaziladi va xulosa chiqariladi

### **Modulli ta’limning asosiy mohiyati**

O‘quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o‘quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

## Modulli ta'lim texnologiyasi qo'llanilgan darsning o'ziga xos hususiyatlari

<b>O'qituvchining faoliyati</b>	<b>O'quvchining o'quv bilish faoliyati</b>	<b>Ko'zlangan natija</b>
1-bosqich. Tashkiliy qism. O'quvchilarning mustaqil o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi	Mashg'ulot davomida bajariladigan o'quv topshiriqlari va ko'rsatmalarini anglaydi.	O'quvchilarni modul dasturining didaktik maqsadi, modullarning hususiy didaktik maqsadiga muvofiq o'quv bilish faoliyatini tashkil etishga o'rgatish.
2-bosqich. Yangi mavzuni o'rganish. O'quvchilarning modul das-turi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, muammoli vaziflarni vujudga keltiradi. Tegishli hollarda yordam uyushtiradi	O'z o'quv bilish faoliyatini tashkil etadi. O'quv mate-rialini mustaqil o'zlashtiradi. O'quv topshiriqlarini to'liq bajaradi. Savollarga javob topadi.	Asosiy g'oyani ajratish, mantiqiy fikr yuritish, fikrini bayon etish va asoslash ko'nikmalarini shakllntirish, muloqatga kirishishga erishish.
3-bosqich. Modul dasturidan o'rin olgan har bir modul yakunida o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy xujum o'tkazish	Mummoli vaziyatlardan chiqishning optimal vari-antlarini taklif etadi. O'quv baxsi savol-javob, munozara va aqliy xujumda faol ishtirok etadi.	Har bir shaxsning intellektual rivojlanishiga imkon yaratish, o'quvchilar o'rtasida xamkorlik. O'zaro yordam vujudga keltirish.
4-bosqich. Modul dasturini yakunlash.	Modul dasturining didaktik maqsadiga muofiq o'z o'uv faoliyatii taxlili qiladi, o'z-o'zini baholaydi.	O'z o'quv faoliyatini tanqidiy taxlil qilish va taqqoslash, o'z-o'zini nazorat va baholashga o'rgatish.
5-bosqich. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash. Mashg'ulot yuzasidan test topshiriqlari yordamida	Test topshiriqlari asosida o'z bilimlarini nazorat qilish, kamchiliklari va xatolarini aniqlash. Ularga barxam berish	O'z o'quv faoliyatidagi kamchiliklarga barxam berish yo'llarini aniqlash va o'z ustida ishlash rejasini tuzishga o'rgatish.

o'qituvchi nazoratini amalga oshirish.	yo'llarini izlash.	
6-bosqich. Erishilgan natijasini taxlil qilish, o'quvchilarga erishilgan natijasiga muvofiq holda mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini tavsiya etish.	O'rganilgan mavzuga oid Krossvord, rebus yoki ijodiy izlanishli topshiriqlarni bajaradi.	O'quvchilarning ekologik bilimlarini o'zlashtirish darajasini oshirish.

### **Modul dasturining didaktik maqsadini aniqlashda**

O'qituvchi geografiyani o'qitishning didaktik maqsadlar majmuasi (DMM), ya'ni geografiyani o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni, mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida, darsda foydalaniladigan modul dasturining didaktik maqsadi (MDM) ni, mavzu ajratilgan modullardan kelib chiqadigan xususiy didaktik maqsadni (XDM)ni aniq tasavvur qilishi zarur.

DMM - Didaktik maqsadlar majmuasi Geografiya o'quv fani yoki bobni o'rganishda ko'zda tutilgan maqsad bo'lsa, MDM – modul dasturining didaktik maqsadi - bu bir dars davomida erishilishi lozim bo'lgan maqsad, XDM - xususiy didaktik maqsad bu - modul dasturidan o'rin olgan modullarni o'rganishdan ko'zlangan maqsadlar deb tushunmoq kerak.

### **Modulli ta'lim texnologiyasining mezonlari**

1. O'quvchilarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o'quv materialini o'quvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular uddalay oladigan va shu bilan birga maksimal darajada qiyin bo'lmasligi kerak.

2. O'quvchilar o'quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallashlari kerak.

3. O'qituvchi o'quvchilarni o'quv materiallarini mustaqil va ijodiy o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishiga erishishi lozim. Bunda, dastlab o'qituvchi darsga olib kiradigan axborotni ikki qismga ajratadi. Birinchi qismini o'quvchilar o'qituvchi yordamida ikkinchi qismini ijodiy va mustaqil o'zlashtirishlari lozim. Keyin belgilangan mavzularni modulli dars shaklida o'tkazishni mo'ljallab, modul dasturlarini tuzadi

## Modulli dasturining turlari

Modul dasturlarini didaktik maqsadlari	O'quvchilarning individula ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi	Ikki o'quvchi xamkorloikda ishlaydigan modul dasturi.	Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlaydigan modul dasturi
O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim saviyasini aniqlash va orttirish.	+	+	+
Mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish	+	+	+
O'quv topshiriqlarini bajarish sur'ati orttirish	+	+	+
O'zaro hamkorlik yordamini vujudga keltirish	-	+	+
O'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish	+	-	-
O'zaro nazoratni amalga oshirish	-	+	+
O'zaro muloqotni vujudga keltirish -	-	+	+
O'quv baxsi va munozarani vujudga keltirish	-	+	+
Ijodiy ishlash va mustaqil ishlash ko'nikmalariin tarkib toptirish	+	+	+

### Modulli va an'anaviy ta'lim texnologiyalari

#### 1. An'anaviy ta'lim

- ✓ darslar bir xil tarzda olib boriladi
- ✓ vaqtdan unumli foydalanilmaydi
- ✓ o'quv materialini o'zlashtirish dastlabki bosqichda bo'ladi. uy vazifasining hajmi ortib ketadi.
- ✓ o'quvchilarning o'zaro muloqoti, mustaqilligi, nutqini rivojlantirish imkoniyati cheklangan.
- ✓ yangi mavzuni o'rganishda o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olinadi.

✓ o‘quvchilar faoliyati sust, tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga qaratiladi.

✓ o‘quvchilar bilimini o‘qituvchi baholaydi.

✓ pedagogik munosabatlar avtoritar texnologiyaga asoslanadi.

## **2. Modulli ta’lim**

✓ modul dasturi talablari asosida olib boriladi

✓ vaqtdan samarali foydalaniladi.

✓ o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiali yuqori darajada o‘zlashtirilishiga, o‘z ustida mustaqil ishlashiga imkon yaratiladi.

✓ o‘quvchilar yakka, juft holda kichik guruhlarda ishlaydi, ular o‘rtasida do‘stona muloqot, o‘zaro yordam, hamkorlik vujudga keladi, nutqi rivojlantiriladi.

✓ har bir o‘quvchi o‘z qiziqishi, iqtidoriga asoslanib bilimini oshirish maqsadida mustaqil va ijodiy ishlab yangi bilimlarni o‘zlashtiradi.

✓ o‘z-o‘zini nazorat, o‘zaro nazorat va o‘qituvchi nazorati amalga oshiriladi.

✓ pedagogik munosabatlar o‘zaro hamkorlikka asoslanadi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Modulli ta’lim texnologiyasi nima?

2. Modulli ta’lim texnologiyasi geografiya faniga qachondan boshlab kirib kelgan?

3. Modulli ta’lim texnologiyasining an’anaviy ta’lim texnologiyasidan farqi nima?

4. Modulli ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering.

5. Didaktik maqsadlar majmuasi nimalarda aks etadi?

6. Xususiy didaktik maqsadlarni aniqlash yo‘llarini aytib bering.

7. Modulli ta’lim texnologiyasida o‘qituvchining tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak?

8. Modul dasturining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

9. Modulli ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari

10. Modul dasturida o‘zida nimalarni mujassamlashtiradi?

11. Geografiyani o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun o‘qituvchining amalga oshirishi lozim?

12. O‘qituvchi modul dasturining didaktik maqsadini aniqlash uchun nimalarga e’tiborni qaratishi zarur?

13. Modul dasturining qanday turlari mavjud?

14. Modulli darsning borishi bilan tanishing. Siz yana nimalarni tavsiya etgan bo‘lardingiz?

## 6-§. GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo‘lgan. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, G‘arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Izroil mamlakatlari ta’lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan.

### *Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasini ishlab chiqqanlar:*

- Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990),
- Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987)
- Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978)
- Izroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan (1988)

### Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari

Darsning borishi	Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining metodlari				
	Komanda da o‘qitish	Kichik guruhlarda o‘qitish	“arra” yoki “zigzag”	“Birgalikda o‘qiy-miz”	Kichik guruhlarda ijodiy izlanish
I. Tashkiliy qism.	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilish faoliyatini faollashtirish;	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilish faoliyatini faollashtirish;	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilish faoliyatini faollashtirish;	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilish faoliyatini faollashtirish;	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilish faoliyatini faollashtirish;

II. O‘quvchilar- ning o‘z- lashtirgan bilimlarini nazorat qi- lish va baholash	O‘tgan mavzu yuzasidan test topshi- riqlari yoki didaktik kartochka yordamida baholash.	O‘tgan mavzu yuzasidan test topshi- riqlari yoki didaktik kartochka yordamida baholash.	O‘tgan mavzu yuzasidan test topshi- riqlari yoki didaktik kartochka yordamida baholash.	O‘tgan mavzu yuzasidan test topshi- riqlari yoki didaktik kartochka yordamida baholash.	O‘tgan mav- zu yuzasidan test topshiriq- lari yoki didaktik kartochka yordamida baholash.
III. Darsning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.	Mavzuning maqsadi, mazkur metodga asoslangan darsning borishi, bajarila- digan o‘quv topshiriq- lari bilan tanishtirish	Mavzuning maqsadi, mazkur metodga asoslangan darsning borishi, bajarila- digan o‘quv topshiriq- lari bilan tanishtirish	Mavzuning maqsadi, mazkur metodga asoslangan darsning borishi, bajarila- digan o‘quv topshiriq- lari bilan tanishtirish	Mavzuning maqsadi, mazkur metodga asoslangan darsning borishi, bajarila- digan o‘quv topshiriq- lari bilan tanishtirish	Mavzuning maqsadi, mazkur metodga asoslangan darsning bo- rishi, bajarila- digan o‘quv topshiriqlari bilan tanish- tirish

### **Komandada o‘qitish**

Mazkur metodda o‘quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a‘zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishiga e‘tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo‘yicha ko‘rsatma berilishi etarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar

o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda ma’suliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

### **Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin 1986).**

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda xam tashkil etilishi mumkin.

### **Hamkorlikda o‘qitishning zig-zag yoki arra metodi (E.Aronson 1978).**

Pedagogik amaliyotda bu metod qisqacha “arra” metodi deb nomlanadi. Mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul)larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlar tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassisi” bo‘lishi shart, mazkur “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Shuni qayd etish kerakki, ushbu darsda o‘quvchilar ikki marta guruhlariga ajratiladi.

Birinchi guruh “mutaxassislar” tayyorlash guruxi.

Ikkinchi guruh “mutaxassislar” uchrashuvi guruhi.

## **“Birgalikda o‘qiyimiz” metodi**

Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiyimiz” metodi 1987 yili Minnesota universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarni to‘liq bajarishi natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari - komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish sanaladi.

## **Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi**

Bu metod 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilar alohida individual yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanish natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatning natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o‘quvchining, muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarining, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilimlarni o‘zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

## **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi nima?

2. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining kichik guruhlarda o‘qitish metodi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
3. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining qaysi metodida o‘quvchilardan “mutaxassislar” va “mutaxassislar uchrashuvi” guruhi tashkil etiladi?
4. Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi kimlar tomonidan ishlab chiqilgan.
5. Hamkorlikda o‘qitishning zigzag yoki arra metodi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
6. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishlar metod kim tomonidan ishlab chiqilgan?
7. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishlar metodning asosiy xususiyati nima?
8. “Birgalikda o‘qiymiz” metodning asosiy prinsiplari nima?
9. Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada qachon paydo bo‘lgan.
10. Guruh a‘zolarining faolligi, hamkorlik, ular o‘rtasidagi muloqotda muloqot madaniyati qachon vujudga keladi?
11. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi deganda nimani tushunasi?
12. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi nima?
13. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining qanday metodlari mavjud?
14. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining qaysi metodidan geografiya ta’limida foydalanilganda yaxshi samara beradi?

## **7-§. GEOGRAFIYA NI O‘QITISH DA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI**

**Muammoli ta’lim** - o‘qituvchi tomonidan pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo‘naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

**Muammoli ta'lim jarayonida** o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini orttirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga etkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi.

Bilimlarni bunday o'zlashtirish usulini hech bir darslik va ustoz o'rgata olmaydi, faqat o'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar echimini topadi.

O'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

#### **Muammoli ta'lim omillar:**

- Muayyan mavzuga oid o'quv materialini muammolashtirish;
- Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish;

## **Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi**

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Shu sababli, Geografiyani o'qitishda o'qitishning reproduktiv metodlari bo'lgan og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan metodik uslublarni to'g'ri anglashi va o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Muammoli izlanish metodlari guruhiga mansub muammoli-izlanish xarakteridagi suhbat metodidan foydalanganda, avval muammoli vaziyatlar yaratiladi, avvaldan tayyorlangan muammoli savollar zanjiri bayon etiladi, o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda mantiqiy mulohaza yuritishiga, o'quv farazlarini hosil qilish va isbotlash, suhbat jarayonida muammoli savollarga javob topishiga imkon yaratiladi.

Muammoli bayon metodida, o'qituvchi yangi mavzuni o'rganish jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratadi, suhbat jarayonida muammoli savollarga javob topishiga, o'quv farazlarini hosil qilish va dalillash, o'quvchilar bilan hamkorlikda ularning javoblari asosida muammolar hal etiladi.

Muammoli-amaliy metoddan foydalanganda muammoli topshiriqlar tuziladi, shu asosda tajribalar o'tkaziladi, muammoli vaziyatlarni hal etish yuzasidan o'quv farazlarini hosil qilinadi va o'quv-tadqiqot tajribalari o'tkazilib, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflab muammolar hal etiladi.

Muammolarni hal etishda o'qitishning mantiqiy metodlari guruhiga mansub induktiv, deduktiv, tahlil, bosh g'oyani ajratish, qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan ham foydalaniladi.

Induktiv metodda – o‘quvchilarning e‘tibori avval xususiy faktlarni o‘rganishga jalb qilinadi, so‘ngra xususiyydan umumiy xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi.

Deduktiv metodda o‘quvchilar avval umumiy qonunlarni o‘rganadi, so‘ngra umumiydan xususiy xulosa chiqarishga o‘rgatiladi.

O‘quvchilar tahlil metodi yordamida axborotni anglab idrok etadi, o‘rganilgan ob’ektlarning o‘xshashlik va farqli tomonlarni aniqlaydi, o‘rganilgan ob’ektlarni tarkibiy qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi boshlanishlar, sabab oqibatlarini aniqlaydi.

Bosh g‘oyani ajratish metodi muhim ahamiyat kasb etib, o‘quv materialidagi asosiy g‘oyani ajratish va saralash, axborotni mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga ajratish, asosiy g‘oya va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, tayanch so‘zlar va tushunchalarni ajratish, asosiy fikr haqida xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

O‘quvchilar qiyoslash metodi vositasida, o‘quv topshiriqlarida berilgan qiyosiy ob’ektlarni aniqlash, ob’ektlarning asosiy belgilarini aniqlash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, qiyoslash natijalarini shartli belgilar bilan rasmiylashtirishga o‘rganadi.

Umumlashtirish metodi muammolarni hal etish jarayonida o‘quv materialidagi tipik faktlarni aniqlash, qiyoslash, dastlabki xulosalar, hodisaning rivojlanish dinamikasini tasavvur qilish, umumlashtirish natijalarini shartli belgilar yordamida rasmiylashtirish, umumiy xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.

Muammoli darslarni keyingi yillarda yangi nom bilan (“Tafakkur bo‘roni” B.R.Kodirov), (“Miyaga hujum”, “Fikrlar to‘qnashuvi”, “Fikrlar jangi” V.M.Karimova, F.A.Akramova), (“Aqliy hujum” J.G.Yuldoshev) nomlanmoqda.

### **Muammoli dars (“Aqliy hujum”) bosqichlari**

I – bosqich. Psixologik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilardan **teng sonli kichik guruhlarni shakllantirish.**

II – bosqich. Kichik guruhlarga muammoli savollardan iborat bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini tarqatish va ularni topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish.

III – bosqich. O‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘quv muammolarini hal etishga yo‘naltirish.

IV – bosqich. O‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha axborotlarini tinglash.

V – bosqich. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘quv bahsi va munozara o‘tkazish

VI – bosqich. Umumiy xulosa yasash.

“Aqliy hujum” da o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqliy faoliyat usullarini egallaydi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga imkon yaratadi.

### **Munozarali darslar**

Munozarali darslar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra:

- ✓ Ilmiy munozara darslari
- ✓ Erkin fikrlash darslariga ajratiladi.

Ilmiy munozara darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Mazkur darsning didaktik maqsadi:

1. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish.

2. O‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.

3. O‘quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo‘lgan intilishni rivojlantirish.

4. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish, o‘z fikrini lo‘nda va mantiqan to‘g‘ri bayon etish, ularni dalillash ko‘nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy munozarali darslardan “Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish”, “Jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi va ta’siri”, “Urbanizatsiya jarayoni va shaharlarning rivojlanishi” kabi mavzulardagi darslarda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Ilmiy munozarali darslarning tuzilishi**

Ilmiy munozarali darslarning tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

I. O‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusining maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o‘tkaziladigan muammolarning umumiy tafsiloti, darsda o‘quvchilar guruhi bajaradigan o‘quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.

II. O‘quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli masalalarni bajarishga va hal etishga yo‘llash;

III. O‘quvchilar guruhi o‘rtasida o‘quv bahsi va munozarani tashkil etish;

IV. O‘quv bahsi va munozara yakuni. O‘qituvchi dars davomida o‘quv bahsi va munozara keltirib chiqargan muammolar echimidagi asosiy g‘oya va tushunchalarni ta’kidlab, xulosalar yasaydi.

V. O‘quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash. O‘quv bahsi va munozaralarda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Darsni umumiy yakunlash.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Muammoli ta’lim deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli ta’limning qanday afzalliklari mavjud?
3. Muammoli ta’limning qanday metodlari bor?
4. Geografiyani o‘qitishda muammoli ta’limning ahamiyati qanday?
5. Muammoli ta’lim texnologiyalari qanday o‘ziga xos xususiyatlariga ega?
6. Muammoli ta’limning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi qanday omillarga bog‘liq?
7. Reproduktiv metodlar guruhiga qaysi metodlar kiradi?
8. Muammoli vaziyatlarning qanday turlari mavjud?
9. O‘qitish jarayonining qaysi bosqichlarida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin?
10. “Aqliy hujum” qanday bosqichlarda tashkil etiladi?
11. Munozarali darslarning qanday turlari bor?
12. Muammoli darslarni o‘tkazishda o‘qituvchi e’tiborni nimalarga qaratishi zarur?

## **8-§. GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI**

**Loyihalash texnologiyasi** jahon pedagogikasida yangilik hisoblanmaydi, chunki, u 1920 yillarda amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyu va uning shogirdi V.X. Kilpatrik tomonidan ishlab chiqilgan loyihalash metodi asosida vujudga kelgan.


Loyihalash texnologiyasi hozirgi kunda AQSh, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Braziliya va Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta’lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

**Loyihalash texnologiyasining** amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishdir.

Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo‘lsa, uning aniq echimi, agar amaliy muammo bo‘lsa, amaliyotga qo‘llash masalasi bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O‘quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo‘llarini izlashlari bu borada avval o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli echimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tasavvur qilishlari zarur

**Loyihaning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra tasnifi**

**Loyihada ko‘zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko‘ra:**




### **Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati**

Ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Loyihalash texnologiyasining asosiy tezisi "O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qaerda va qay tarzda foydalanishni bilaman" sanaladi. Bu tezis o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo'ljalni to'g'ri olishlariga yordam beradi.

### **Loyihalarning predmeti va mazmuniga ko'ra:**



## Loyihalar xarakteriga ko'ra:

- Aniq natija olishga mo'ljallangan loyihalar
- Ko'p yo'nalishli natija olishga mo'ljallangan loyihalar.

## Loyihada ishtirok etadigan qanashchilar soniga ko'ra:

- Yakka tartibdagi loyihalar
- Ikki o'quvchiga mo'ljallangan loyihalar.
- O'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan loyihalar.

## Loyiha ko'lamiga ko'ra:

- Bir sinf o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar
- Maktab o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar
- Shahar miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar
- Mamlakat miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar
- Dunyo miqyosida hal etilishi mo'ljallangan loyihalar

## Loyiha muddatiga ko'ra:



- Qisqa muddatli



- Uzoq muddatlirga ajratiladi

### **Tadqiqot xarakteridagi loyihalar**

*Ushbu loyihalarning tuzilishi juda yaxshi ishlangan, jumladan, loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar uchun tadqiqot predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, foydalaniladigan metodlar, tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo'lishi kerak.*

*Mazkur loyiha mantiqan to'lig'icha ilmiy-tadqiqot muammolariga yaqinlashgan va uning echimiga mos va bo'ysingan bo'lishi kerak. Loyihaning ushbu turi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqot muammosining predmeti va ob'ekti, vazifalarning izchil va bosqichma-bosqich aniqlanishi, muammolarni hal etish bo'yicha farazlarni ilgari surish, uni hal etishning tadqiqot o'tkazish va tajribalar qilish yo'llarini ishlab chiqish, olingan natija va xulosalarni muhokama qilish, rasmiylashtirish, tadqiqotni davom ettirish uchun yangi muammolarni belgilanishi lozim.*

*Geografiya o'qituvchisi bu toifadagi loyihalardan darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda foydalanishi mumkin.*

### **Ijodiy loyihalar**

Mazkur loyihani hal etishda qatnashchilardan ijodiy yondashish talab etiladi. Ijodiy loyihalarning tadqiqot xarakteridagi loyihalardan asosiy farqi, ularning mantiqiy strukturasi avvaldan belgilanmaydi, balki loyihaning echimi davomida shakllantiriladi. Ijodiy loyihada qatnashchilarning qiziqishi, motivi, ehtiyojiga ko'ra loyihaning yo'nalishi, olinajak natija belgilanadi. Lekin loyihada ko'zda tutilgan natijani rasmiylashtirish va jihozlashda qat'iy talab qo'yiladi.

Geografiya o'qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin

### **Rolli o'yin loyihalari**

*Ushbu loyihalarda struktura aniqlanmaydi va ish tugagunga qadar ochiq bo'ladi. Loyiha qatnashchilari muayyan rollarni bajaradilar. Rollarga muvofiq holda ularning vazifalari aniqlanadi. O'yin syujetiga muvofiq ular rollarni bajarishi, tegishli hollarda "mansabdor shaxs" sifatida muloqotga kirishishi, bunda mavjud qobiliyat va iste'dodlari, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishlari lozim. Loyihani hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishlari uchun juda ko'p mehnat qilishlari, izlanishlari, mustaqil va ijodiy fikr yuritishlari, mustaqillik va onglilik talab etiladi. Bu erda ijodiy izlanish mavjud, lekin o'quvchilar ma'lum rollarni bajarish orqali loyiha hal etilganligi sababli rolli o'yin loyihalar sanaladi.*

### **Amaliy xarakterdagi loyihalar**

Bu toifadagi loyihalar qatnashchilar faoliyatidan kutilgan natijalarning aniq belgilanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur natija amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Bunday loyihalar juda yaxshi strukturaga ega bo'lishi kerak. Loyiha ssenariysi, qatnashchilarning vazifalari, natijaga erishish bosqichlari, foydalaniladigan metodlar, olingan natijalarni rasmiylashtirish shakllari aniq belgilanishi kerak. Bu loyihani amalga oshirishda qatnashchilarning har birining ulushi, yakka tartibda va kichik guruhda olib boriladigan ishlar natijalari, taqdimot, olingan natijalarni amaliyotga qo'llash yo'llari ko'rsatiladi.

### **Izlanish xarakteridagi loyihalar**

Loyihalarning bu tipi muayyan bir mavzu bo'yicha axborot va material to'plash, to'plangan axborot va materiallar bilan loyiha qatnashchilarini tanishtirish, ularni tahlil qilish, faktlarni umumlashtirish, olingan natijalarni rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur loyihalar tadqiqot xarakteridagi loyihalar bilan uyg'unlashib ketadi va uning bir qismiga aylanishi mumkin.

Izlanish xarakteridagi loyihalarning strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kerakli bo'lgan axborotni izlash manbalari;

2. Izlanish bosqichlari;
3. To‘plangan axborotlar, materiallar, faktlar ustida tahlil o‘tkazish;
4. Xulosalar yasash;
5. Izlanish yo‘nalishiga o‘zgartirishlar kiritish;
6. Yangi faktlarni to‘plash;
7. Umumlashtirish va xulosa yasash;
8. Olingan natijalarni rasmiylashtirish.

Bu toifadagi loyihalardan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanishi mumkin. Bular jumlasiga “O‘zbekiston Qizil kitobi”ga kirgan o‘simliklar va hayvonlar, “O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari” kabi mavzulardagi loyihalarni kiritish mumkin.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Loyihalash texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Loyihalash texnologiyasining qanday afzalliklari mavjud?
3. Loyihalash texnologiyasining qanday metodlari bor?
4. Geografiyani o‘qitishda loyihalash texnologiyasining ahamiyati qanday?
5. Loyihalash texnologiyasining mazmuni va mohiyatini o‘rganing.
6. Tadqiqot xarakteridagi loyihalar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
7. Ijodiy xarakterdagi loyihalar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
8. Rolli loyihalar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
9. Izlanish xarakteridagi loyihalar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
10. Amaliy xarakterdagi loyihalar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?

## 9-§. GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA KARTOGRAFIK TEXNOLOGIYASI

**Geografik karta** - Yer yuzasini kichraytirilib va umumlashtirilib shartli belgilar bilan tekislikka tushurilgan tasviridir. Ular tabiiy va iqtisodiy- ijtimoiy voqea va xodisalar tasvirlanadi.

### **Umumiy kartografik tushunchalar:**

**Tarix (plan)**- joyning yirik miqyosda (5000 va undan kattaroq) tuzilgan chizmasidir. Chizmada maydoni uncha katta bo‘lmagan kichik-kichik joylar tasvirlanadi.

**Aerofotosurat**- tayyora va boshqa o‘zi uchar asboblardan yordamida olingan Yer yuzasini yoki uning bir qismining tasviridir. Ular orqali joyning tuzulishi, reliefi, o‘simlik qoplami, yo‘llari, qishloqlar, jihozlar va korxonalarining joylanishi aniqlanadi.

**Kosmosurat**- Yerning va boshqa sayyoralarining kosmik kemalari yordamida olingan tasvirdir. Ular fanning va halq ho‘jaligining turli sohalarda keng qo‘llaniladi. Har bir tarix, karta va kosmo va aerosurat ma’lum bir miqyosda tuzuladi.

**Masshtab** - bu kartadagi chiziqning uzunligini Yer yuzasidagi shu chiziqqa mos keladigan haqiqiy uzunlikka nisbatdir. U kartadagi tasvir necha marta kichraytirilganini ko‘rsatadi. Masalan, kartada daryoning uzunligi 1sm, haqiqiy uzunligi 10 km, yoki 1 000000 sm. Demak haritaning miqyosi 1: 1 000000. Miqyoslar sonli, chizikli va so‘zli bo‘ladi. Sonli miqyos kasrdan iborat, uning surati 1- ga teng, maxraji esa kartada tasvir necha marta kichraytirilganini ko‘rsatadigan son bo‘ladi. Masalan, 1: 1 000 yoki ----- bu tasvirni ming marta kichraytirilganligini ko‘rsatadi. Chizikli miqyos - bu teng bo‘laklarga bo‘lingan to‘g‘ri chiziqdir. Har bir bo‘lak qancha masofaga tengligi uning ustiga yozib qo‘yiladi. So‘zli miqyos kartadagi 1sm masofa haqiqatda qanchaga tengligini ko‘rsatadi. Masalan 1sm 10km ga teng.

**Andozalar (proeksiyalar)** - bu Yer yuzasining kartada tasvirlash usulidir. Yer dumaloq bo‘lganligi tufayli uni tekislikda tasvirlanayotganda ma’lum bir xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Bunday xatoliklarga asosan maydonni, uzunlikni va burchaklarni tasvirlayotganda yo‘l qo‘yiladi.

Shuning uchun turli xil (teng burchakli, teng maydonli, teng masofali va aralash andozalar) qoʻllaniladi.

### **Shartli belgilar**

Voqea va hodisalarning maʼlum bir belgilar yordamida xaritada tasvirlanishiga **shartli belgilar** deyiladi. Masshtabli shartli belgilar yordamida voqea va hodisalar haqiqiy oʻlchamlari bilan tasvirlanadi. Masshtabsiz shartli belgilar bilan, xaritalarning miqyosida koʻrsatib boʻlmaydigan voqea va hodisalar tasvirlanadi (TES, qon, aholi yashaydigan joylar). Chiziqli shartli belgilar bilan daryo oqimining yoʻnalishi, oʻrmondagi daraxtlarning turlari koʻrsatiladi. Bundan tashqari yozuvli, xarfli, sonli shartli belgilar ham boʻladi.

### **Geografik atlaslar va ularning turlari**

**Atlaslar-** toʻla va aniq maʼlumotga ega boʻlgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingan xaritalar toʻplamidir.

«Atlas» atamasi Flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U oʻzi tuzgan xaritalar toʻplamini (1595 yili) Liviyaning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Xaritalar toʻplami birinchi marta II-asrda Klavdiy Ptolomiy tomonidan tuzilgan. Atlaslar egallagan maydonga qarab, Sayyoralar, dunyo, materiklar, okeanlar, oʻlkalar, davlatlar, viloyatlar atlaslariga boʻlinadi. Mazmuniga qarab umumgeografik va mavzuli atlaslarga boʻlinadi. Vazifasiga koʻra ilmiy maʼlumotli, ommabop (oʻlkashunoslik), oʻquv, sayox va yoʻl atlaslariga boʻlinadi.

### **Globuslar va ularning turlari**

**Globus** (lotincha globus – dumoloq) Yerning kichraytirilgan nusxasi, unda Yer yuzasi, mareriklar va okeanlar, togʻlar va tekisliklar shakli xatosiz aniq va toʻgʻri tasvirlanadi. Birinchi marta globus Beruniy tomonidan X asrda, Bexaym tomonidan XV asrda yasalgan.

Globuslar masshtabiga koʻra mayda (1:30000000) va yirik globuslarga boʻlinadi.

Oʻquv va boshqa maqsadlar uchun yirik globuslar yasaladi.

### **Geografik kartalarni oʻqish**

- ✓ kartalarning daraja toʻri, masshtabi va shartli belgilarini oʻqish;
- ✓ topografik xaritalarni oʻqish asosida diktantlar yozish;

- ✓ relefning o‘qish va uning tavsifini tuzish;
- ✓ geologik va tektonik tuzilishni o‘rganish va xulosa chiqarish;
- ✓ foydali qazilmalarni o‘rganish;
- ✓ iqlimni o‘rganish va uning tavsifini tuzish;
- ✓ geografik sharoitni o‘rganish;
- ✓ tuproqni va o‘simliklar qoplamini o‘rganish;
- ✓ hayvonot dunyosini o‘rganish;
- ✓ tabiat zonalarini o‘rganish;
- ✓ joyning umumiy tabiiy geografik tavsifini tuzish;
- ✓ tabiat resurslarini o‘rganish;
- ✓ aholi kartasini o‘qish;
- ✓ yoqilg‘i energetika sanoatini o‘rganish;
- ✓ sanoat xaritasini o‘qish;
- ✓ qishloq xo‘jalik xaritalarini o‘qish va h.k.

### **Kartalarni tushuntirish**

O‘quvchilarni geografik kartalarni tuzilishini tushuntirishga o‘rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy rejasi bilan ishlanadi, gorizontallarni o‘qish bo‘yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to‘ri bilan mashq qilinadi, turli kartalar solishtiriladi, nuqtalarni geografik kordinatalari aniqlanadi, turli masshtablar bilan mashq qilinadi va x.k.

Kartalarni tushunishini eng yaxshi yo‘li joyni o‘rganish va uni kartada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan kartaga o‘tish, rejadan geografik kartaga o‘tish orqali ham geografik kartalarni tuzilishini tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o‘quvchilarni daraja to‘ri, kartografik yiriklashtirish (generalizatsi) va geografik kartalarni tushuntirishga imkon beradi.

Joyda va sinfda olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar (yo‘nalishlarini aniqlash, masofani o‘lchash va ularni chizmada tasvirlash hamda ularni joy rejasiga tushirish) o‘quvchilarni geografik kartalarda xaqiqatda borliq va xodisalar tasvirlanganligiga ishonch xosil qilishiga undaydi.

Geografik kartalarni tuzilishini tushunishga faqat joyda olib borilgan ishlargina emas, balki joyning xomaki rejasi bilan ishlash ham yordam

beradi. Bunday ishlar o'quv sayohatlari, turistik poxodlarda va joyda amaliy ishlar olib borganda bajariladi.

O'quvchilar yirik masshtabli kartalarni tuzilishini gorizontallarni o'qish bo'yicha olib boriladigan mashqlarda, topografik kartalar yordamida relefni tasvirini tushirish jarayonida joyni rejasini tuzish davomida o'rganishadi.

O'z yashash joyini tuzilishi va joy rejasini o'rganish davomida o'quvchilar asta-sekin yirik va mayda masshtabli kartalarni tuzilishini anglay bolashadi. Ular topografik va geografik kartalarni solishtirish asosida joy rejasini va geografik karta o'rtasidagi farqlarni tushuna boshlashadi.

### **Kartografik tasavvurlarni shakllantirish**

Kartografik tasavvurlarni shakllantirish geografik bilimlarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Kartografik tasavvurlar quyidagi usullar yordamida shakllantiriladi:

- ✓ geografik borliq, voqea va xodisalarni kartada ko'rsatish;
- ✓ geografik voqea va xodisalarni nomlarini yozish;
- ✓ geografik borliq, voqea va xodisalar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish;
- ✓ didaktik materiallardan foydalanish; geografik diktantlar tayyorlash;
- ✓ turli xil karta chizmalarini chizish;
- ✓ chizikli kartalar bilan ishlash; globus va turli xil kartalar bilan ishlash.

Geografik tasavvurlarni shakllantirishdan maqsad o'quvchilar tomonidan geografik obektlar va ularni nomlarini hamda joylarini mustaxkam o'zlashtirishdir.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Tarix (plan) nima?
2. Karta deganda nimani tushunasiz?
3. Aerosurat deb nimaga aytiladi?
4. Karta bilan aerosuratni farqi nima?
5. Masshtab (miqyos) deb nimaga aytiladi?

6. Masshtabni qanday turlarini bilasiz?
7. Maktab geografik xaritalari qanday turlarga bo‘linadi?
8. Kartalarda voqea va hodisalar qanday usullarda tasvirlanadi?
9. Vazifasiga ko‘ra kartalar qanday turlarga bo‘linadi?
- 10.«Atlas» atamasini fanga kim kiritgan?
- 11.Kartalarni tuzilishi texnologiyasi haqida so‘zlab bering.
- 12.Geografik kartalarni o‘qish texnologiyasi sxemasini tuzing.
- 13.Kartografik tasavvurlar qanday tartibda shakllantiriladi?

## **10-§. AMALIY METODLAR TURLARI HAMDA TAVSIFI**

**Amaliy metod o‘quv jarayonida o‘quvchilarning turli-tuman faoliyatini yo‘naltirish bilan belgilanadi.**

Amaliy metod og‘zaki va ko‘rgazmali metod bilan uzviy bog‘langan (ko‘rsatish, oldinda turgan ish bo‘yicha o‘qituvchining tushunchasi). Biror amaliy ishdan boshlashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilar oldida topshiriq qo‘yadi va uni bajarish yo‘li haqida ko‘rgazma beradi.

Topshiriqni muammoli tarzda bo‘lgani ma’qul uni echish jarayonida bilim bilan birga o‘qituvchining amaliy ishi va mantiqiy tafakkuri uyg‘unlashib ketadi. Bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quv jarayonini amaliy tarzda uyushtirish o‘quvchi mustaqilligi va ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Amaliy ishlar jarayonida faol o‘zlashtirilgan bilimlar engil va ongli bo‘lib qolmay ancha mustahkam bo‘ladi. Amaliy metod shu paytda qo‘llaniladiki, qachonki faol amaliy va fikrlash faoliyati natijasida yangi bilimlar olish zarurati tug‘ilganda. Shuningdek, faqat yangi bilimlar hosil qilish emas, shu bilan birga ularni yangi vaziyatda qo‘llay olish o‘quvchi yoki amaliy ko‘nikmasi hosil bo‘lishiga erishish lozim.

Amaliy metodning bir necha turlari mavjud: kuzatish laboratoriya tajribalari; tirik mavjudotlarni aniqlash va tavsiflash ishlari; priborlar bilan ishlash; tirik tabiat burchagida va o‘quv tajriba uchastkasidagi amaliy ishlar.

**Kuzatish** - bu tabiatdagi predmet va hodisalarni maqsadga yo‘nalgan holda idrok qilishdan iborat bo‘lib, ularning umumiy va farq qiluvchi

belgilarini qonuniyatlari aniqlanadi. Kuzatish jarayonida o'quvchilarda kuzatuvchanlik ko'nikmalari shakllanadi. Kuzatish ilmiy metod hisoblanadi, qaysiki o'quvchilar ancha murakkab ilmiy tadqiqot ishlarini - tajribalarini qo'yishga, o'tkazishga tayyorlanadilar. Kuzatishda o'qituvchi tomonidan aniq vazifa qo'yilgan bo'ladi.

Kuzatishlar yakka, guruh hamda frontal shakllarda o'tkaziladi.

K.D. Ushinskiy, V.P. Vaxterov, L.S. Sevmk, A.Ya. Gerd kuzatishga katta e'tibor bergan edilar. A.Ya.Gerd o'zining "Maktabda tirik hayvonlar" nomli kitobida o'quvchilarni kuzatishlar asosidagi harakatlari tadqiqot o'quvchi haqida o'quv va amaliy topshiriqlarni mustaqil echish ko'nikmasi bilan qurollanishini ta'kidlaydi. Kuzatishlar natijasida 2-3-4-sinflarda "Kuzatishlar kundaligi" daftari to'ldiriladi, savollarga javob yoziladi. O'simliklarning o'sish, rivojlanish, gullash va hosil berish jarayonlari kuzatiladi.

Kuzatish tabiat jismlari va hodisalarining tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan holda bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olish yoki laboratoriya sharoitida ularni qayta tiklashdir.

Ko'rgazmali metodlarda o'quvchilarning kuzatishi amaliy metod sifatidagi kuzatishdan tubdan farq qiladi. Birinchi holatda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan namoyish qilinayotgan jadval, tajriba va shunga o'xshashlarni kuzatadilar. Ikkinchi holatda o'quvchilar amaliy kuzatish ishlarini bajaradilar: o'simliklarni yoki ularning qismlarini o'lchaydilar, hisoblaydilar, yozadilar, rasmlarini chizadilar, quritadilar va hokazo. Bu kuzatish natijasida o'quvchilar kuzatgan jism yoki hodisani isbotlovchi materialni topshiradilar. Bunday kuzatish, aniqlash va eksperimentlar darsda, uyda, ekskursiyada va maktab maydonchasida o'tkazilishi mumkin.

O'quvchilar bevosita rahbar o'qituvchining og'zaki va yozma topshiriqlarini mustaqil ravishda bajaradilar. I.P.Pavlov yozganidek, "Kuzatish tabiat taqdim qilganlarni to'playdi, tajriba esa tabiatdan o'z istaganini oladi".

Kuzatishlar o'zining bajarilishi muddati bo'yicha ikki: qisqa muddatli va uzoq muddatli guruhlariga bo'linadi. Qisqa muddatli

kuzatishlar toʻlaligicha dars tizimiga kiritiladi va tarqatma material bilan bajariladi. Ammo kuzatishning borishi va natijalari darsda maʼlum qilinib, namoyish etiladi. Oʻquvchilar qisqa muddatli kuzatishlarni oʻqituvchining topshirigʻi bilan ekskursiyalarda oʻtkazadilar (tabiatdagi mavsumiy oʻzgarishlarni taʼriflash muayyan sharoitlarda oʻsimliklarni yigʻish). Tabiatda olib boriladigan uzoq muddatli fenologik kuzatishlar va maktab er maydonidagi kuzatishlar keng qoʻllaniladi.

Tabiiy fanlarda kuzatish deganda atrof borliqning jism va hodisalarini rejali ravishda, maqsadga yoʻnalgan holda, ongli tashkillangan qabul qilish tushuniladi. Kuzatishlar ikki belgi: muayyan maqsadning boʻlishi va diqqatni kuzatish obyektini bilgan holda toʻplash bilan xarakterlanadi.

Oʻqitishning boshlangʻich bosqichlarida oʻqituvchi oʻquvchilarning kuzatishlarini tashkil qila turib, ularni oldin safarbar qilishi yoki kuzatish moʻljallangan jismni ongli qabul qilib olish uchun kerakli maʼlumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi, kuzatishning izchilligini koʻrsatishi zarur. Kuzatishsiz oʻquvchilar tabiat jismlari va hodisalari, ularning xususiyat hamda sifatlari, ular oʻrtasida mavjud bogʻlanishlar haqida toʻgʻri tasavvurlar ololmaydilar.

Oʻquvchilarda tegishli tasavvuriarning hosil boʻlishi qabul qilishning boyligi va toʻliqligiga bogʻliqdir. Kuzatishda oʻquvchilar faqat kuzatilayotgan obyektlarning tomoshabini boʻlib qolmasdan, balki ularning xarakterli xususiyatlarini bilib olishga intiladilar. Masalan, chinor va zarangning barglari rangini oʻzgarishini kuzatib, oʻquvchilar shu daraxtlar nihollarining barglarini bir-biri bilan taqqoslaydilar va ularning farqlanadigan hamda umumiy belgilarini aniqlaydilar: yashik yoki maydonchaga oʻsimlik urugʻlarini ekib, oʻsimtaning urugʻ qobigʻini qanday yorib chiqayotganligini, birinchi barglar qanday vujudga kelayotganini va oʻsimlikning rivojini kuzatadilar. Jism va hodisalarni kuzatish, ularni taqqoslash, oʻxshashlik va farqlarini aniqlash tafakkur, diqqat hamda irodaning rivojlanishiga yordam beradi. Kuzatish jarayonida, amaliy xarakterdagi bilimlar, masalan, oʻsimliklar dunyosining xarakteriga qarab, joyda oriyentirlash; hayvon va oʻsimliklarning xulq-atvori, tabiatdagi oʻzgarishlarga qarab, ob-havoning oʻzgarishini oldindan aytib

berish; mehnat darslarida tabiatshunoslik materialidan foydalana olish (tabiiy materiallar - mevalar, urugʻlar, barglar, poʻstloq bilan ishlash) uquvlarini hosil qiladilar.

1-3- sinflardagi kuzatishlardan oʻquv shaklining xilma-xil shakllarida:

- sinfdagi dars va amaliy mashgʻulotlarda;
- ekskursiyalarda;
- tirik tabiat burchagi va maktaboldi er maydonidagi mustaqil mashgʻulotlarda; - uy vazifalarini bajarishda foydalanish kerak.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri boʻyicha qisqa muddatli va uzoq muddatli boʻlishi mumkin. Qisqa muddatli kuzatishlar biror narsani qabul qilib olish uchun oʻtkaziladi. Hayvonlar (kirpi, toshbaqa, shoxilon, kapalak, ninachi) ning harakatlanishini kuzatish qisqa muddatli kuzatishga misol boʻlishi mumkin. Uzoq muddatli kuzatishlar vaqt oraliqlari bilan boʻlingan, lekin yagona uzluksiz jarayonni hosil qilgan qator hodisalarni qamrab oladi. Bunga oʻsimlikning oʻsishini, daraxtlardagi barglar rangining oʻzgarishini, qushlarning uchib ketishini va hokazolarni kuzatish misol boʻlishi mumkin. Ular bir qator qisqa vaqtli kuzatishlardan tashkil topadi. Uzoq vaqtli kuzatishlar hodisalar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yordam beradi. Bular kurtakdan bargning rivojlanishini, tut ipak qurtining rivojlanishini kuzatishlar boʻlishi mumkin. Kuzatishlar oqibatida oʻquvchilar taraqqiyot davrlarining izchilligini va ular oʻrtasidagi aloqalarni belgilaydilar. Kuzatishlar jamoa (butun sinf bilan bir vaqtda) yoki yakka (har bir oʻquvchi mustaqil) holda boʻlishi mumkin.

Kuzatish uchun oson (uddalasa boʻladigan) obyektlarni tanlash zarur. Kuzatishlar oʻlkashunoslik xarakterida boʻlsin. Juda murakkab va tushunarli boʻlmagan hodisa va narsalarni tanlash kerak emas. Bu oʻquvchilar qiziqishini sovitishi va kuzatishni chalkashtirib yuborishi mumkin. Tanlangan shakllardan qat'i nazar 1-4-sinf oʻquvchilari uchun oʻlkashunoslik kuzatishlari albatta izchil boʻlishi kerak. Bundan tashqari, oʻlkashunoslik kuzatishlar kompleksi albatta tizimlashgan tabiatshunoslik bilimlarini tushunib olishga, idrok qilish faolligini, tabiatga qiziqish va

muhabbatni rivojlantirishga, tabiat (atrof) obyektlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirishga yo'naltirilmog'i lozim.

1-2-sinflarda tabiatni kuzatish uchun atrof olam bilan tanishtirishga oid darslardan foydalaniladi. 3-4-sinflarda kuzatishlar sistemasi "Jonajon o'lka tabiati" mavzusi bilan bog'liq holda mavsumiylik tamoyili asosida tuziladi. Tabiatni kuzatishlar tizimiga ushbu tushunchalarni, ya'ni jonli va jonsiz tabiat, mevali va manzarali daraxtlar, erta gullovchi o'simliklar, texnika ekinlari, suv o'simliklari, sabzavot va poliz ekinlari, g'alla ekinlari, hasharotlar, baliqlar, suvda va quruqda yashovchilar, qushlarni kiritish mumkin. Kuzatishlarning natijalari yil fasllari bo'yicha "Kundalik kuzatish daftari" va sinfning tabiat hamda mehnat kalendarida qayd etib boriladi. Alohida e'tibor Quyosh balandligining, kun va tun uzunligining yil fasllari bo'yicha o'zgarishini kuzatishlarga qaratiladi. Bu kuzatishlar o'quvchilarga tabiat va odamlar mehnat faoliyatidagi mavsumiy o'zgarishlar sabablarini aniqlash imkoniyatini beradi. "Kundalik kuzatishlar daftari"dagi maxsus maqolalar bolalarni kuzatishlar o'tkazishga yordam beradi. "Yozda siz tabiatda nimalarni kuzatdingiz?",

"Kuzatishga o'rganing", "Kuzda tabiatni kuzatish natijalari", "Tabiat va odamlar mehnatidagi bahorgi va yozgi o'zgarishlar haqida nimalarni bilib oldingiz?" kabi maqolalar shular jumlasidandir. Tabiat va mehnat kalendariga kuzatish ma'lumotlarini har kuni yozib borish kuzatishlarga turg'un qiziqishni singdiruvchi maqsadga muvofiq uslublardan hisoblanadi. Shu maqsadda o'quvchilardan biri doskaga taklif qilinadi, u ob-havoni batafsil ta'riflaydi, kun davomida tabiat va odamlar mehnatida qanaqa qiziqarli holatlar bo'lganligi haqida gapirib beradi. Uning javobini o'rtoqlari to'ldirib aniqlaydi. Javob o'qituvchi tomonidan albatta baholanadi, kuzatish kalendariga yoziladi.

Tabiat va mehnat kalendariga yozilgan ma'lumotlarni faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika (zarur hisoblashlar qilish, masalalar tuzish, diagramma chizish), ona tili (insho tayyorlash, biror davrda tabiatni ko'rsatish uchun she'rlar va nasriy asardan parchalar tanlash), mehnat ta'limining qishloq xo'jalik mehnati bo'limi (biror davrdagi ob-havo o'quv-tajriba maydonidagi o'simliklarning o'sishi va

rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tahlil qilish) darslarida ham umumlashtirish mumkin.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko'pincha ikkita tanish daraxtga (masalan, chinor va zarangga) qaraydilar, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Bolalar suratni ko'rib, undagi eng muhim tomonlarni ko'ra oladilar, deb bo'lmaydi. O'qituvchi ular oldiga aniq obyektlarni topish, ularni ta'riflash, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun bolalarni jism va hodisalarni taqqoslashga o'rgatish muhimdir. Kuzatish uchun biror narsani ko'rsata turib, o'qituvchi ularni nimaga o'xshashligini so'rashi kerak. O'xshashlikni aniqlab, o'qituvchilar e'tiborini narsalar o'rtasidagi farqlarga qaratish kerak. Bunda kuzatishga iloji boricha ko'proq sezgi a'zoilarini jalb etish muhim. Bolalar ko'ribgina qolmasdan, kerak bo'lganda ushlab, hidlab ham ko'rsin.

Kuzatuvchanlik tabiatga, ishlab chiqarishga, muzeyga, fermaga, zooparkka ekskursiyalar o'tkazish vaqtida ham rivojlanadi. Bu ekskursiyalar shunday ko'rishgina emas, balki sinchiklab qarash, shunday eshitishgina emas, balki diqqat bilan quloq solish qobiliyatini tarbiyalaydi. Tabiiy fanlarni o'qitilishini to'g'ri yo'lga qo'yilishi boshlang'ich sinfdayoq bolalarni tabiat jismlari va hodisalarini kuzatishga o'rgatadi.

Shunday qilib, tabiiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmali uslubdan foydalanish bolalarda aniq faktik bilimlarning to'planib borishiga yordam beradi.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun darslarga o'yin turlarini kiritish foydalidir.

Tabiiy fanlar kursida fenologik kuzatuvlar alohida o'rin egallaydi. O'qituvchining o'zi tegishli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lsagina bolalarni fenologik kuzatuvlarni to'g'ri o'tkazishga o'rgata oladi.

Tabiatning rivojlariishida har yili mavsumiy davriylikni kuzatamiz. Bu yil fasllari va jonli hamda jonsiz tabiatning har biriga xos bo'lgan hodisalardir.

Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishi qonuniyatlarini muhit sharoitiga bog‘lab o‘rganadigan fan fenologiya deb ataladi.

Umumiy va xususiy fenologiya farq qilinadi. Umumiy fenologiya mavsumiy davriylikning juda ham xilma-xil va murakkab bo‘lgan tabiatni o‘z ichiga oluvchi yagona jarayon sifatida o‘rganadi. Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishi har bir biogeosenoz ekologik qonuniyatlarning kompleks ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich har bir tabiat hududi iqlimini o‘rganishda olimlarga yordam beradi. Xususiy fenologiya mavsumiy hodisalarning butun kompleksini emas, balki o‘simliklar yoki hayvonlarning rivojlanish fazalarini o‘rganadi (fitofenologiya yoki zoofenologiya). Har qanday organizm mazkur joyda necha ming yillar davomida yuzaga kelgan (o‘z atrofidagi) muhit bilan birgalikda bir butunni tashkil etganidan, kishilar o‘simliklar bilan hayvonlarni parvarishlash yuzasidan olib boradigan ijodiy ishlarida mavsumiy hodisalarni kompleks tarzda o‘rganmasdan iloji yo‘q. Bunga tirik tabiat qonunlarini bilishga imkon beradigan umumiy fenologik kuzatuvlar yordamida erishish mumkin, xolos. Umumiy fenologik kuzatuvlar haqiqiy tadqiqot ishining boshlanishi hisoblanadi va har qanday tadqiqot singari o‘qituvchiga atrof tabiatda u ilgari payqamagan narsalami ko‘rishga imkon beradi. O‘qituvchi mohirlik bilan boshchilik qiladigan bo‘lsa, fenologik kuzatuvlar o‘quvchilarga ham tarbiyaviy jihatdan ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Maktabda umumiy fenologik kuzatuvlardan tabiiy fanlarga doir sinf mashg‘ulotlarini joyning tabiati va xo‘jaligi bilan bog‘lab olib boriladigan metod sifatida foydalanish mumkin va lozim.

O‘qituvchi ko‘p yillik fenologik kuzatuvlarga asoslanib, jonajon o‘lkaning ekologik xarakteristikasi uchun asos bo‘lib qoladigan o‘rtacha ko‘rsatkichlarni chiqarib olishi kerak.

Yerning shakli, sutkalik va yillik harakatlari bilan hali tanish bo‘lmagan uchinchi sinf o‘quvchilariga tabiatdagi ko‘pgina mavsumiy o‘zgarishlarni ilmiy tarzda tushuntirib berish uchun Yer yuzasi ustida Quyosh holatining sutka davomida va turli mavsumda qanday o‘zgarishini va shunga bog‘liq holda turli holatini kuzatish muhim ahamiyatga ega. Mana shu kuzatuvlarni tashkil etish va o‘tkazish ustida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘qituvchi birinchi mashg‘ulotdayoq o‘quvchilar tabiiy fanlar darslarida nimalarni o‘rganishlari bilan tanishtiradi va ularga qaysi vaqtda tong otishini (qachon yop-yorug‘ bo‘lib ketishini) va qaysi vaqtda qorong‘u tushishini (qachon hammayoq qop-qorong‘i bo‘lishini) hafta davomida “Kundalik kuzatish daftari”ga yozib borishni taklif etadi. Dastlabki 1- va 2-kunlari bu borada bolalarga ota-onalari yordam berib turganlari ma’qul, chunki bolalarning ko‘pchiligi soatga qarab vaqtni aniqlash malakasini hali egallab olmagan bo‘ladi (uchinchi sinf o‘quvchilari vaqt birliklari bilan o‘quv yilining birinchi choragida tanishadilar), Bolalar “Kundalik kuzatish daftari”ga yozib kelgan yozuvlarning to‘g‘riligini o‘qituvchi har kuni matematika darsida tekshirib chiqadi. Hafta oxirida matematika darsida bolalarga “Kundalik kuzatish daftari”ni tayyorlab qo‘yish va yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarga yozib kelingan yozuvlarning to‘g‘riligini bir-biringizdan tekshirib ko‘ring, bu yozuvlar nimani bildirishini bir-biringizga tushuntirib bering, deb taklif etiladi. Bolalar bu ishni qiziqish bilan bajarishadi, agar yozuvlarda ba’zi tafovutlar bo‘lsa, olingan natijalarni muhokama qilishadi (bunday tafovutlar bo‘lishi muqarrar, chunki bolalar kunning boshlanishi bilan oxirini ko‘rsatadigan aniq mezonni hali bilishmaydi). Tong bilan oqshom boshlangan vaqtni hammadan ko‘ra aniq belgilab kelgan ba’zi o‘quvchilar o‘z yozuvlarini darsda o‘qib berishadi, boshqa o‘quvchilar esa yozuvlarida farq bo‘lsa, ularni tuzatishadi. So‘ngra o‘qituvchi yonma-yon o‘tirgan ikki o‘quvchiga kun bilan tunning uzunligini hisoblab chiqishni taklif etadi. Bir sutka 24 soat ekanini bolalar endi bilishadi. Zarur hisoblarni bolalarning o‘zlari bajarishlari muhim. O‘qituvchi olingan natijalarni aniqlashtirib beradi va kun bilan tunning uzunligi ko‘rsatkichlari bundan keyin o‘zgarimasdan qolaveradimi yo‘qmi, degan savolga javob berishni o‘quvchilarga taklif etadi. Yilning turli fasllarida bu ko‘rsatkichlar o‘zgarib turishini bolalar endi bilishadi. Shu sababdan bu gapni tasdiqlab berish uchun kuzatuvlarni davom ettirish kerak bo‘ladi.

O‘quvchilarga kun bilan tun uzunligining o‘zgarib borishi ustidagi kuzatuvlarni oyiga bir marta, taxminan oyning 20-22-sanasida olib borish (sentabrda bunday ishni oy oxirida ham o‘tkazish mumkin) va natijasini “Kundalik kuzatish daftari”ga yozib qo‘yish vazifasi topshiriladi. Kuzgi va

bahorgi tengkunlik, quyoshning qishki va yozgi vaqtlarda chiqishining qachon boshlanishini bolalarning o'zlari kuzatish jarayonida aniqlab oladigan bo'lishlari juda muhimdir.

Kun bilan tun uzunligini o'zgarib borishi ustidagi kuzatuvlar bilan bir qatorda Quyoshning Yer yuzasiga nisbatan holati, haroratning o'zgarishi ham kuzatib boriladi. O'quvchilar jonsiz tabiatning mana shu hodisalari o'rtasidagi bog'lanishni va o'simliklar bilan hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarning shu hodisalarga bog'liqligini tezda payqab oladilar. Jonli va jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borish natijasida o'quv yili oxiriga kelib, o'quvchilarda jonajon o'lka tabiatining bir butunligi haqida yaxlit tushuncha hosil bo'lishi kerak. Kuzatuvlar maqsadini bolalar o'quv yilining boshidayoq anglab oladigan bo'lsa, ish qiziqarli mashg'ulot turini oladi. Mazkur ishni o'quvchilar diqqat bilan, juda aniq bajaradigan, hatto unga ijod elementlarini kiritib boradigan bo'lishlariga erishmoq zarur.

Tarqatib chiqiladigan tabiiy materialni o'rganish jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik va diqqat-e'tibor rivojlanib boradi. O'qituvchi avval kuzatuvlarning batafsil rejasini berishi, o'rganilayotgan obyektning muhim belgilari bilan xossalarini qay tariqa aniqlash kerakligini darslarning birida ko'rsatishi kerak, xolos. Masalan, xiyobonga (maktab er maydoni, bog'i, tabiatga) ekskursiyaga chiqilganda bolalar o'z o'lkalarida eng ko'p tarqalgan ba'zi daraxtlar, butalar va o'tlar bilan tanishib, bargli va mevali shox-novdalar namunasini, yaxlit holdagi o't o'simliklarni yig'ib keladilar. Keyingi darsda esa o'rganilayotgan shu o'simliklarning belgilari aniqlanadi. O'qituvchi yonma-yon o'tirgan ikkita o'quvchiga bir-biriga taqqoslash yo'li bilan daraxtlarning barglari va mevalarining tuzilishidagi o'xshashlik va farqni, yana ikkita o'quvchiga butalarning barglari bilan mevalari tuzilishidagi o'xshashlik va farqni topishni (agar bular bo'lsa), uchinchi juft o'quvchiga o'tsimon o'simliklarning qismlari bilan tanishib, solishtirib ko'rishni va o'xshashlik hamda farqini aniqlashni taklif etadi, O'quvchilar ishni bajarar ekanlar, obyektlarni diqqat bilan ko'rib chiqadilar, o'z kuzatuvlari haqida avval bir-birlariga so'zlab beradilar, keyin har bir guruhdan bitta o'quvchi o'z kuzatuvlarining natijasi to'g'risida butun sinfga gapirib beradi. Shu tariqa ularda o'rganilayotgan

daraxtlar, butalar va o'tlar haqida, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yaxlit tushuncha hosil bo'ladi, ular ko'rib chiqqan narsalarini yaxshiroq eslab qoladilar.

Dars oxirida o'qituvchi kuzatuvlar davomida aniqlangan ko'pdan-ko'p faktlarni umumlashtirishga va o'simliklarning yashash muhiti bilan o'zaro bog'liqligi to'g'risida xulosa chiqarishga yordam beradi. Keyinchalik o'qituvchi bolalarga biror topshiriq berar ekan, bajarilgan ish uchun bir-biriga baho qo'yishni taklif etishi mumkin. Demak, o'quvchilarning har biri o'quv yili davomida goh o'quvchi, goh o'qituvchi rolini bajarib, o'qituvchiga yordamchi bo'lib borishi mumkin. Pirovard natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonch munosabatlari tarkib topa boradi, ya'ni hamkorlik pedagogikasiga ilk qadamlar qo'yiladi.

Kuzatuvchanlik va diqqat-e'tiborni rivojlantirish uchun, masalan, hayvonlarning xulq-atvorini kuzatish foydalidir. Chunonchi, tabiatga ekskursiyaga chiqilganda bolalar chumchuq, jibljibon, qarg'a va maynalarning er yuzida qay tariqa harakatlanishini kuzatishib, o'qituvchidan ularning yurishlarini imkoni boricha o'xshatib namoyish qilib ber, degan topshiriqni olishadi. Yoki boshqa bir kuzatuv olib borish: musicha, chittak, chumchuq, qarg'a, mayna, zag'izg'onlar qanday ovoz chiqarishini tinglash va kuzatuvlardan keyin shu tovushlarga taqlid qilib, tovush chiqarish o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilarning ba'zilari qushlarning ovozi va harakatlariga taqlid qiladilar, boshqalari o'z o'rtoqlarining qanday qushlarga taqlid qilayotganini aniqlab borishadi. Bu mashg'ulot quvnoqlik bilan, qiziqarli o'tadi, natijada bolalar yovvoyi qushlarning hayoti to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lishadi, ularda bu qushlarga nisbatan qiziqish va ular hayotini yana kuzatib borish, ularni asrash, qishda boqish istagi paydo bo'ladi. Xuddi boshqa har qanday ishda bo'lgani kabi, bu ishda ham kuzatuvlar natijalariga qarab "Kundalik kuzatish daftari"ga tegishli yozuvlar yoziladi va rasm chiziladi.

Tajribalar atrof tabiatni bilishning samarali metodi hisoblanadi, chunki ularda bolalarni qiziqtiradigan elementlar mavjud. Bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritish va nutqni tarbiyalashda tajribalar katta ahamiyatga ega. Bolalar kishilarning

tabiatni o'zgartirishlarida tajribalar chinakam vosita bo'lishini ko'rishlari kerak. Tajribalarni o'quvchilar asosan mustaqil holda o'tkazadilar. Asboblar va moddalar bilan juda ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladigan tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi.

Tajriba o'tkazishdan oldin o'quvchilar undan ko'zlangan maqsadni yaxshi tushunib olishlari, tegishli anjomlar (moddalar, asboblar va boshqalar) bilan tanishib chiqishlari kerak. Tajribani o'tkazish, uning borishi va natijalarini «Kundalik kuzatish daftari»ga yoki tutilgan daftarlarga yozib borish uchun bolalar bilan birgalikda batafsil ishlab chiqilgan reja bo'lishi zarur. Tajribalar natijalari ham daftarlarda yoritiladi va xulosalar chiqariladi.

Sinfda, maktab o'quv-tajriba maydonchasida va joylarda olib boriladigan amaliy ishlardan maqsad bilimlarni o'zlashtirib olishdangina emas, balki ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallab olishda ham o'quvchilarga yordam berishdan iborat. Bunday ishlar sirasiga, masalan, tabiat ustidan kuzatuv olib borish; kuzatuv natijalarini yozib borish va ishlab chiqish malakasini egallashga, gerbary, kolleksiyalar, ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlashga, o'lchov ishlarini bajarishga (havoning harorati, gnomon soyasining uzunligi va boshqalarni o'lchashga) qaratilgan ishlar; tuproqning xossalarini, foydali qazilmalarni, odamning tanasi, shaxsiy hamda jamoat gigiyenasi qoidalarini o'rganishga bog'liq bo'lgan amaliy ishlar kiradi.

O'quvchilarning bar bir amaliy ishi oldindan yaxshilab tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan, aniq rejalashtirilgan, topshiriqlar mazmuni puxta tuzilgan bo'lsagina ular samarali natija berishi mumkin.

Tajriba tabiatshunoslikni o'qitishning etakchi uslubi ekanligi bois hamda ba'zi turdagi amaliy ishlarni tayyorlash, tashkil etish, ularning o'zlariga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan tanishamiz.

*Tajriba tabiatshunoslikni o'qitishning amaliy metodidir.* Tajriba o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Tajribalar o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiatshunoslik tasavvurlari shakllanadi.

Tajribalar atrof olamni bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. Ular ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi bar xil jismlarning xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir.

Tajribalar mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda bolalarga yaqindan yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladilar. Faqat tajribagina suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'rsatadi.

Oddiy tajribalar o'quvchilar tomonidan uy sharoitlarida, o'quv-tajriba maydonida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Murakkabroq tajribalarni o'qituvchi darsda namoyish qiladi. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatidan eng oddiy tajriba faqat bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish jarayonini fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham qimmatlidir.

Faraz qilaylik, o'quvchilar darsda Quyoshning Yer yuzasiga nisbatan holatiga qarab kuzda ob-havoning sovib borishi to'g'risida bilim olishlari kerak. Bu hodisani tushuntirish uchun o'qituvchi tajriba o'tkazadi. U yonib turgan shamga ingichka qog'oz tasmachasini tutadi. Bitta tasmachani shamning tepasida, ikkinchisini shamdan sal uzoqroqda ushlab turadi. O'quvchilar qog'oz tasmachalarning qaysinisi oldinroq yonganligini aytishlari va nima uchunligini tushuntirishlari lozim. O'quvchilar bu tajriba orqali yozda va kuzda Quyosh nurlarining Yer yuzasini qanday isitishini bilib oladilar.

Tajribaning borishini kuzatib, o'quvchilar kuzda Quyosh Yer ustida kun sayin tobora pasayishi to'g'risida xulosa chiqaradilar. Uning qiya tushayotgan nurlari Yer yuzasidan uzoqlashib o'tadi va havoni isitmaydi. Shuning uchun ham kuzda sovuq tusha boshlaydi.

Materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi namoyish qilgan va o'quvchilarning o'zlari o'tkazgan tajribalarning rasmini chizish yoki ularni ta'riflab yozish, ba'zi hollarda uni ham, buni ham bajarish kerak. Asbob va moddalar bilan ishlashda ehtiyotlikni talab qiluvchi tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi. Har qaysi tajribani boshlashdan oldin

o'quvchilarga uning maqsadini, tajriba o'tkazishda nima uchun xuddi shu asbob va moddalar olinganligini yaxshilab tushuntirish, tajribaning o'tkazilishini hikoya qilib berish rejasini yozish kerak.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining faol faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib etishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab er maydoni, tirik tabiat burchagida sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

- O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi;
  - Rasm chizishi;
  - Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari;
  - Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari;
  - Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish)
- kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Tabiiy fanlar darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. O'simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar.

**Tabiiy fanlarni o‘qitish metodlari tizimida amaliy ishlar.** Tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda amaliy ishlar katta rol o‘ynaydi. Amaliy ishlar o‘quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o‘rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o‘quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig‘ish, maktaboldi er maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha amaliy ishlar dastur va darsliklarga kiritilgan, ularning bajarilishi majburiydir. Ular boshlang‘ich sinfda politexnik ta‘limni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Amaliy ishlarning samaradorligi o‘quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Amaliy ishlarga tayyorlanish odatda uzoq vaqtni talab qiladi va bitr necha bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. O‘quvchilarning nazariy tayyorlanishi. Masalan, maktaboldi er maydoniga sabzavot va manzarali o‘simliklarni o‘tqazish oldidan o‘quvchilar ularning urug‘larining unib chiqishini uzoq vaqt kuzatadilar. Uyda, tirik tabiat burchagida yoki darsda bolalar o‘simlik urug‘dan asta-sekin va muayyan sharoit (namlik, havo, issiqlik) bo‘lgandagina rivojlanishini aniqlaydilar. Olingan nazariy bilimlar o‘quvchilarni o‘zlariga ajratilgan paykaldan yoki tirik tabiat burchagida amaliy ishlarni diqqat bilan, yodda saqlab bajarishga imkon beradi. Nazariy tayyorgarlikdan keyin bolalar ekish vaqtida tuproqning yumshoq, nam va issiq bo‘lishi kerakligini bilib oladilar, amaliy ishda faol qatnashadilar.

2. Amaliy ishda o‘quvchilarning barchasi qatnashishlari lozim. Buning uchun bolalarni ish bajarishga kerak bo‘ladigan ish qurollari, asbob-uskuna va materiallar bilan ta‘minlash zarur. Masalan, gerbariy tuzish uchun yig‘ilgan o‘simliklar solinadigan papka, qalin qog‘oz yoki karton varag‘i, ip, igna bo‘lishi lozim.

3. O‘quvchilarning amaliy ishlari o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. U ishni bajarishda qiynalganlarga o‘z vaqtida yordam berishi lozim. Biroq bunda bolalarning faolligi hamda mustaqilligini chegaralamaslik kerak.

4. O‘quvchilarning ishlari albatta tahlil qilinadi va baholanadi, muvaffaqiyatli bajaranganlar rag‘batlantiriladi.

Bu ishlarning bajarilishi o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni konkretlashtirish va mustahkamlashda o‘qituvchiga yordam beradi.

Birinchi sinfda bolalar amaliy ish ko‘nikmalarini hali egallamagan bo‘ladilar. Shuning uchun dastlabki paytlarda amaliy ish mashq qilish xarakterida bo‘ladi. Masalan, tushda (kunning o‘rtasida) soyaning qoziqdan uzunligini aniqlashga yoki havo haroratini o‘lchashga va ularning natijalarini yozib borishga o‘rgatish uchun uzoq vaqt mashq qilish kerak bo‘ladi. O‘quvchilar oddiy, ko‘p vaqt va urinishni talab qilmaydigan topshiriqlardan asta-sekin ancha murakkabroq vazifalarni bajarishga o‘tadilar. Vaqt o‘tishi bilan amaliy ishlar tobora mustaqillashib borishi kerak. O‘qituvchining amaliy ishlarga rahbarlik qilish shakllari ham o‘zgarib bormog‘i lozim: agar birinchi darslarda har bir o‘quvchiga bosqichlar bo‘yicha batafsil yo‘l yo‘riq berish kerak bo‘lsa, yilning ikkinchi yarmida ish bo‘yicha sinfdagi barcha o‘quvchiga ko‘rsatma berish kifoyadir. Amaliy ish o‘tkazishda o‘qituvchi o‘quvchilar asoslanadigan bilimlar saviyasini aniqlash kerak.

Barcha tajriba va amaliy ishlar “Kundalik kuzatishlar daftari” ga qayd qilinadigan yozuvlar bilan birga olib borilishi kerak. Shuningdek, rasmlar chizish, plastilindan obyektlar yopishtirish, tabiiy materiallarni modellashtirish ham tavsiya qilinadi. Bunda o‘quvchilar tasvirlanadigan jism yoki hodisaga diqqat bilan qaraydilar, ulardagi ilgari e‘tibor berilmagan xususiyatlarni payqaydilar. Amaliy ishlar vaqtida xulosalarni yozib borish yoki rasmlar ostiga yozuvlar yozish bolalarga ta‘riflarni aniqlab olishga, tabiatshunoslik atamalarini esda saqlashga yordam beradi.

Amaliy ishlarni tajriba va kuzatishlar bilan bog‘lab olib borish kerak. Chunonchi, qizdirganda va sovitganda suv haroratining o‘zgarishini kuzatish oldidan o‘quvchilar suvning uch holatda bo‘lishi, haroratning o‘zgarishi bilan ular bir-biriga o‘tishi to‘g‘risida bilim olishlari kerak. O‘quvchilar termometr tuzilishini bilishlari va undan foydalana olishlari lozim. Ular 2-sinfda olgan bilimlaridan erkin foydalana olishlari uchun o‘qituvchi avval suhbat, keyin amaliy ish o‘tkazadi, bu vaqtda kerakli

tajribalarni takrorlaydi, termometrni qarab chiqishni taklif qiladi. Ilgari o'tkazilgan tajribalarga mavjud bilim, o'quv hamda ko'nikmalarga murojaat qilish zarur, chunki bu o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi, yangi bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

**Sinfda amaliy mashg'ulotlar.** Sinfda amaliy mashg'ulotlar tarqatma material bilan olib boriladi, bu o'quvchilarga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning ustida har xil tajribalar o'tkazadilar, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolg'acha bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan - qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar. Tarqatma material sifatida tabiatshunoslik darslarida jonsiz va jonli tabiat jismlari (toshlar, foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar) dan foydalaniladi.

Amaliy ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- o'qituvchining yo'1-yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- materiallarni tarqatish;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish - suhbat; - xulosalarni daftarga yozish; - rasmlar chizish.

Amaliy ish vaqtida o'qituvchi topshiriq tushunarsiz tuyulganda yoki murakkab bo'lganda ayrim o'quvchilarga yordamlashadi. Lozim bo'lsa ish mazmunini butun sinfga takroran tushuntirish kerak bo'ladi. Amaliy ishning asosiy qiyinchiligi kuzatilayotgan hodisalarni anglash, eng muhimlarini ajrata bilish, xulosalarni ifodalay olishdir.

Tirik tabiat burchagidagi amaliy mashg'ulotlar uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar bilan bog'liqdir. Tirik tabiat burchagida amaliy ish o'tkazishga bag'ishlangan darsda uning maqsadi va bajarish izchilligi tushuntirilishi kerak. O'quvchilarga savolnoma berish mumkin. Tabiat burchagidagi ishlarning natijalaridan tegishli mavzular o'rganilayotganida foydalaniladi.

O‘simliklarni o‘stirish bo‘yicha maktaboldi maydonidagi amaliy ishlar sinfdagi darslarda olingan bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, o‘quvchilarni amaliy o‘quv va ko‘nikmalar bilan qurollantiradi, ularda tabiatga va qishloq xo‘jaligi mehnatiga qiziqish uyg‘otadi.

Maktaboldi maydonidagi amaliy ishlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan hamda o‘quvchilarning kuzatishlari bilan birga olib boriladigan suhbat va o‘qituvchining tushuntirishlari sinf mashg‘ulotlari soatlarida ochiq havodagi dars sifatida o‘tkazilishi lozim. Dars nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi.

Darsning nazariy qismida o‘qituvchi oldinda turgan ishning ahamiyati va mohiyatini tushuntiradi, o‘quvchilarni mehnat qurollari va ish uslublari vositasida o‘rganilishi kerak bo‘lgan o‘simliklar bilan tanishtiradi.

Darsning bu qismini rejalashtirishda tabiatshunoslik bo‘yicha o‘quvchilar oladigan va o‘zlashtiradigan bilimlarni aniq belgilab olmoq zarur. Ishning maqsadi va ahamiyatini tushuntirib, o‘qituvchi bolalarga uni bajarishning to‘g‘ri uslublarini ko‘rsatadi va uni nima uchun boshqacha emas, shunday bajarish kerakligini aytadi. Keyin o‘qituvchi bir-ikki o‘quvchiga ishni bajarishni taklif qiladi va faqat ular ishni to‘g‘ri bajara olgach, butun sinfga ishga kirishishga ruxsat beradi, Darsning ikkinchi qismi bolalarning amaliy ishidir.

Amaliy ish vaqtida o‘qituvchi o‘quvchilarni kuzatib, qo‘shimcha tushuntirishlar olib boradi, ish sifatini baholaydi, yaxshilarini alohida ta’kidlaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf qilishni taklif etadi. Darsga yakunlovchi suhbatda yakun yasaladi; darsda bolalar qanday yangi ma’lumotlarni bilib olganliklari, nima qila olishga o‘rganganliklari, ish vaqtida o‘zlarini qanday tutganliklari aniqlanadi, Xotimada o‘qituvchi ekilgan urug‘larni yoki o‘tqazilgan o‘simliklarni qanday parvarish qilish kerakligi, bu ish qanday tashkil qilinishi haqida ma'lumot beradi.

**Ekskursiyalarda amaliy ishlar.** Ekskursiyalar o‘tkazishda o‘qituvchining topshirig‘iga muvofiq mustaqil ish bajarilishi (barglar yig‘ish, qurigan shoxlarni qirqish, rasmlar chizish, o‘lchashlar o‘tkazish, foydali qazilmalar kolleksiyasini yasash va hokazolar) ga katta e’tibor

beriladi. Ish bajarish oldidan o'quvchilar o'qituvchidan topshiriqlar oladilar, u o'quvchilarni ish uslubi (masalan, qanday barglarni yig'ish, shoxlarni qanday kesish, o'simliklarni qanday kovlab olish) bilan tanishtiradi. Ekskursiyalarda maktaboldi maydonidagi ishlardagidek o'qituvchi xilma-xil metodik uslublardan foydalanib, bolalarga yordam ko'rsatadi.

Quyi sinflarda ko'rgazmali qurollar tayyorlash bo'yicha amaliy ishlar olib boriladi. Ular uchun kerak bo'ladigan narsalarni tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ekskursiyalarda ham, maktaboldi maydonidagi ishlarda ham yig'ish mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda, mehnat darslarida kichik yoshdagi maktab o'quvchilari ushbu ko'rgazmali qurollarni: tuproqlar, foydali qazilmalar va hasharotlar kolleksiyalarini; hasharotlardan karam kapalagi, tut ipak qurti rivojlanishini aks ettiruvchi stendni; gerbariylar (barglarning har xil shakllari, ularning ranglarini o'zgarishi, o'lkaning har xil manzarali daraxt va butalari, o't o'simliklarning shoxlari, o'simliklarning urug'dan izchil rivojlanish bosqichlari)ni tayyorlashlari mumkin. O'quvchilar tayyorlagan ko'rgazmali qurollar bilan tabiatshunoslik xonasini jihozlash, ulardan darslarda tegishli mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin.

Shunday qilib, darsning maqsadi va mazmuniga qarab o'qituvchi o'qitishning xilma-xil metodlari hamda uslublarini qo'llaydi. O'qituvchi qanaqa metod va uslublar tanlamasin, ulardan kompleks, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi bu asosiy maqsad - o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarining bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiatshunoslik fanining tushunchalarini to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Eksperimentlar ko'pincha fiziologik jarayonlarni o'rganishda o'tkaziladi. Eksperimentlar uzoq va qisqa muddatli bo'ladi. Tabiiy fanlar hamda botanika darslarida o'tkaziladigan qisqa muddatli eksperiment yoki tajribaga urug'ning tarkibi, tuproqning fizik xossalari, bargda kraxmal hosil bo'lishi va shunga o'xshashlarni o'rganishga umum ma'lum ishlar misol bo'la oladi. Urug'larni unib chiqish sharoitlari, barg orqali suvni bug'lantirish kabi ancha sodda tajribalarni o'quvchilar uyda bajaradilar.

Odatda, eksperimental ishlarni o'quvchilar darsdan tashqari mashg'ulot (indivudal va guruh) sifatida maktabning tirik tabiat burchagi yoki o'quv tajriba maydonida bajaradilar.

Amaliy ishlar kuzatuv va tajribalarni to'ldiradi, tabiiy materialni o'rganishda bolalarni birlashib ijodiy ravishda ishlashga o'rgatadi.

Amaliy ishlar dars jarayonida, ekskursiyalarda olingan bilimlarni har tomonlama mustahkamlashga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy ishlar bolalarda mehnat malakalari va ko'nikmalari hosil bo'lishiga, mustaqil ishlashga yordam beradi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang'ich sinflarda tajriba va amaliy darslar qanday ahamiyatga ega?
2. Tajriba deb nimani tushunasiz?
3. Tajriba - tabiatshunoslikni o'qitishning etakchi uslubi ekanligi haqida nima deya olasiz?
4. Oddiy tajribalarga nimalar kiradi?
5. Murakkab tajribalargachi?
6. Amaliy uslublarning turlariga nimalar kiradi?
7. Amaliy ishlarga tayyorlanishning qanday bosqichlarini bilasiz?
8. Amaliy ishlarning asosiy turlari nimalardan iborat?
9. Sinfdagi amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati va ularni olib borish tartibi haqida qanday fikrdasiz?
10. Amaliy ishlar qanday tartibda olib boriladi?
11. Amaliy ishlarni bajarishda o'qituvchining vazifalari nimalardan iborat?
12. Ekskursiyalarda amaliy ishlar va ularning bajarilishi, ahamiyati haqida nima deya olasiz?
13. Eksperiment nima va uning qanday turlari bor?
14. Kuzatish tabiatni o'rganishning ko'rgazmali metodi ekanini qanday tushunasiz?
15. Kuzatish turlari haqida nimalar deya olasiz?
16. Qisqa muddatli kuzatishlarga qanday misollar keltira olasiz?
17. Tabiiy fanlarda fenologik kuzatuvlar qanday ahamiyatga ega?
18. Fenologik kuzatishlarni aks ettiruvchi qanday mavzularni bilasiz?

## GLOSSARIY

**Amaliy ishlar** - o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir.

**Amaliy metodlar** - o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallangan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishda bo'lishini ko'rsatadi.

**Amaliy uslublarning turlariga** - tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlar, hodisalarni kuzatish va qayd qilish, tajriba o'tkazish (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

**Tabiiy fanlarning o'quv mashg'ulotlari** - dars, tajribalar, sayohatlar, amaliyotlar, dalada o'tkaziladigan amaliyotlar, kuzatishlar, eksperimentlar va boshqalar.

**Bilimlarni og'zaki tekshirish** - u har bir darsda butun sinfdan frontal (umumiy) so'rash yoki ayrim o'quvchilardan indiviudal so'rash ko'rinishida o'tkaziladi.

**Bilimlarni yozma tekshirish** - tekshirishning bu turi savollarga yozma javob berish yoki yozma topshiriq bajarish tarzida o'tkaziladi.

**Dars** - dars deganda ma'lum fanlarni, ma'lum hajmdagi bilimlarni ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga, maxsus tayyorgarligi bo'lgan mutaxassis tomonidan berilishi tushuniladi.

**Darsning tuzilish qismlari** - tashkiliy qism, uy vazifasini tekshirish, yangi materialni bayon qilish, o'quvchilarning mustaqil ishlashlari, yangi bilimlarni mustahkamlash, dars materialini umumlashtirish, uyga vazifa berish, baholarni sharhlash.

**Dasturlashtirilgan didaktik kartochkalar** - bunday kartochkalar o'rganilgan mavzuning variantlari bo'yicha tuziladi. Kartochkada savolning topshiriq va unga uchta: to'liq va to'g'ri, noto'g'ri va noaniq javoblari beriladi. O'quvchi daftariga kartochka nomeri va qavs ichida javob nomerini yozishi kerak.

**Darsdan tashqari ishlarning turlari** - bularga tirik tabiat burchagidagi, o'quv tajriba maydonidagi va tabiatda yozgi topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishlar kiradi.

**Didaktika** - (pedagogikaning bo'limi) ta'lim-tarbiya jarayoni. Ekran vositalariga diafilm, diapozitiv va kinofilmlar kiradi.

**Estetik tarbiyaning vazifasi** - tabiatda go'zallikni bunyodga keltirish va uni muhofaza qilish, tabiatni idrok etish, tabiat va jamiyatda xulq-atvor hamda muomala madaniyati qoidalariga rioya qilishdir.

**Ekskursiya darsi** - o'qitishning eng yuqori ko'rgazmalilik va o'quvchilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir.

**Ekskursiya** - jarayonida foydalaniladigan metodlar - og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish), ko'rgazmali (suhbat jarayonida kuzatish) va amaliy (o'quvchilarning amaliy ishlariga rahbarlik qilish).

**Ekskursiya** - darsining bosh didaktik maqsadi mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat o'quvlarini singdirish, tabiatshunoslik bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishdir.

**Ekskursiya darsining asosiy tuzilish elementlari** - tashkiliy qism, o'qituvchining yo'l-yo'riq berishi, o'quvchilarning mustaqil ishlashidir.

**Ekskursiyadan keyin tabiatshunoslikka oid maqolalar o'qishning ahamiyati** - bu darslarni o'tishda ekskursiyada olingan bilimlar rasm yoki yozuvlar tarzida mustahkamlanadi.

**Eksperiment** - ko'pincha fiziologik jarayonlarni o'rganishda o'tkaziladigan tajribalar.

**Eksperiment** turlari qisqa va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

**Fenologiya** - jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishi qonuniyatlarini muhim sharoitga bog'lab o'rganadigan fan.

**Fluger** <sup>TM</sup> - shamol yo'nalishini aniqlovchi asbob.

**Frontal** (umumiy) so'rashning ahamiyati - bunda javob berishga ko'proq o'quvchilarni jalb etish va sinf e'tiborini tortib turish imkoniyati bo'ladi.

**Geografiya** - lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “geo” - Yer va “grafo” - chizmalar, tasvirlayman ma'nosini anglatadi.

**Geografiya maydonchasining ahamiyati** - maydonchanning ahamiyati katta, unda ob-havoni, Quyoshning holatini muntazam kuzatib borish, joyda oriyentirlash, masofani oʻlchash ishlarini oʻtkazish, shuningdek, “Tabiatshunoslik” fani dasturiga bogʻliq topshiriqlarni bajarish mumkin.

**Globus** - kun va tunning almashinishi, yil fasllari, issiqlik mintaqalari toʻgʻrisidagi materialni tushunish uchun zarur boʻladigan Yer sharining modeli, uning kichik masshtabdagi sharsimon koʻrinishi.

**Gnomon** - Quyoshning ufq ustidan balandligini aniqlaydigan asbob.

**Hikoya** xillari - aytib berish, ta'riflash, xarakterlash, tushimtirish, muhokama qilish.

**Innovatsiya** - tushunchasi “yangilik”, “isloh” degan maʼnoni bildiradi. Keng maʼnoda qaraganda, taʼlim tizimidagi har qanday oʻzgarish pedagogik innovatsiyadir.

**Integratsiya** – “birlashtirish” degan ma'noni bildiradi.

**Ilgʻor pedagogning vazifasi** - avvalo, boshqa oʻqituvchilarga qaraganda, oʻz ishiga masʼuliyat bilan qaraydigan pedagogning masʼuliyatni sezib, doimo izlanib oʻz vazifasini bajarishidir. Ilgʻor pedagogik tajribani ifodalovchi asosiy mezon oʻqituvchi oʻz pedagogik faoliyatida qoʻllaydigan taʼlim-tarbiyaning yangi shakl, metod va usulidir.

**Izohli oʻqish** darslarining turlari - ekskursiyadan keyin oʻqish, tabiiy obyektlarni kuzatgandan keyin oʻqish, predmetli darsdan keyingi oʻqish, tajribalarni namoyish qilishdan keyingi oʻqish va boshqalar.

**Jonsiz tabiat** - Quyosh, Oy, yulduzlar, Yer, havo, toshlar kiradi.

**Jonli tabiat** jismlari - bular oʻsimliklar, hayvonlar, odamlar.

**Jonsiz tabiiy tarqatma materiallari** - bularga granit, kvarts, loy, qum, osh tuzi, temir, har xil toshkoʻmir, aluminiy, choʻyan, polat va boshqalar kiradi.

**Korreksiya** - tuzatish, yaxshilash. Anomal bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarini pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo‘qotish.

**Kuzatish** - bu tabiat jismlari va hodisalarini tabiiy sharoitlarda maqsadga yo‘nalgan holda bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmasdan sezgilar bilan qabul qilib olish yoki laboratoriya sharoitida ularni qayta tiklashdir.

**Kuzatishlar turlari** - davomiyligi va xarakteri bo‘yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘ladi.

**Ko‘rgazmali metodlar** - har xil ko‘rgazma qurollarini namoyish qilish. Ta'limda texnika vositalaridan foydalanish.

**Laboratoriya uskunalari** - bularga laboratoriya shtativlari, uchoyoqlar, spirt lampalari, probirka qo‘yadigan shtativlar, qisqichlar, shuningdek, idishlar va boshqalar kiradi.

**Mantiqiy uslublar** - taqqoslash, tahlil qilish va sintezlash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, kuzatuvchanlik va boshqalar.

**Metodika** - o‘quv fanining mazmunini, ta'lim va tarbiya metodlari hamda shakllarini ko‘rib chiqadigan fan.

**Metodik uslub** - faqat metodning unsurlaridan biri bo‘lib, uning tarbiyaviy qismidir.

**Model** - narsa yoki qurilmaning barcha tafsilotlarini takrorlovchi, ularga o‘xshash hajmli tasvirdir.

**Muammoli darsning bosqichlari muammoli vaziyat yaratish va uning tahlili, muammoni ifodalash (qo‘yish), muammo echimini izlash, muammoni hal qilish va echimining to‘g‘riligini tekshirish.**

**Mustaqil ishlarning mazmuni** - darslik bo‘yicha ilgari o‘rganilgan materialni mustaqil takrorlash; mustahkamlash uchun mashqlar; kuzatishlar bo‘yicha topshiriqlar (tarqatma material asosida); “Kundalik kuzatish daftari” bilan ishlash; darsliklar bilan ishlash.

**Og‘zaki metodlar** - o‘qituvchining materialni og‘zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash.

**Qabul qilish** - inson tomonidan atrof-olam jismlari va hodisalarini sezgilarga bevosita ta'sir qilishida aks etadi.

**Qisqa muddatli kuzatishlar** - biror narsani qabul qilib olish uchun o'tkaziladi. Hayvonlarning harakatlanishini kuzatish bunga misol bo'lishi mumkin.

**Qurilma va inshootlar** - bunga shaxta, domna pechi, suv va shamol harakatlantiruvchilari kabilarning modellari kiradi.

**Proyeksion apparatlar** - bularga shishadagi diapozitivlarni namoyish qiladigan proyeksion chiroq, tiniq pardadagi diapozitivlarni namoyish qiladigan alloskop va fillmoskoplar kiradi.

**Raqamli dasturlashtirilgan topshiriqlar** - bunda kartochkada topshiriq ko'rsatiladi va javoblarga kalit beriladi, o'quvchi kerakli kalitni topishi lozim.

**Suhbat turlari** - kirish suhbat, takrorlovchi suhbat, bayon qiluvchi suhbat, yakunlovchi suhbat.

**Tabiat** - 1. keng ma'noda-butun borliq, xilma-xil shakl va ko'rinishdagi olam, Materiya, Koinot tushunchalarini ham qamrab oladi. Tabiatning umumiy tushunchalari falsafiy va fan metodologiyasi doirasida ishlab chiqilib, tabiiy fanlar yutuqlariga tayangan holda, tabiatning asosiy tavsifini ochib beradi; 2. tabiatshunoslik va tabiat hodisalari, uning asosiy qonuniyatlarini to'g'ri tushuntirish inson turmushini yanada yaxshilash va materialistik dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Bunda, tabiat haqida dastlabki tasavvur beriladi, obyektiv olamning rang-barang ko'rinishi va hodisalari tushuntiriladi; 3. olamdagi narsalarning hammasi, butun borliq, mavjudot, jonli tabiat, tevarak-atrof, dala, o'rmon, tog', adir va h.k.lar.

**Tabiat** - Quyosh, Oy, yulduzlar, Yer, havo, suv, toshlar, o'simliklar, hayvonlar, odamlar - bular hammasi tabiat. Tabiatshunoslik tabiat, tabiat hodisalari haqidagi fandır.

**Tabiiy ilmiy bilish usul (metod)lari** - umuminsoniy tafakkur (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya va boshqalar), emperik va nazariy tadqiqot usullari (kuzatish,

tajriba, olchash, modellashtirish, ideallashtirish, formallashtirish va h.k).

**Tamoyillar** - nazariyaning umum va muhim fundamental asoslari.

**Transkripsiya va translatsiya** - hujayra qayta ishlab chiqarish jarayonining qismlari.

**Texnika** - 1. atrof-muhitni tabiiy, shuningdek, atropogen jihatdan qayta qurishga (o'zgartirishga) yo'naltirilgan urinishlar yig'indisi; 2. nafaqat mashinalar, balki obyektlarga nisbatan matematik vositalarni va turli tajribaviy jarayonlarni qornlash asosida tartibli yondashuv.

**Tafakkur** - obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati.

**O'lkashunoslik** materiallaridan tabiatshunoslik darslarida foydalanishga o'qituvchining mahalliy o'lkashunoslik materiallaridan tabiatshunoslikni o'qitishda tushuntirish, taqqoslash va ko'rsatish uchun foydalanishi, o'quvchilarning ulardan ko'pgina tabiat hodisalarini bevosita idrok qilib olishlari kiradi.

**O'qitish metodi** - o'qituvchining bilimlar berish va ularni o'quvchilarning o'zlashtirib olish usulidir.

**O'qitishning shakli** - tarbiyaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning tomonidan foydalaniladigan o'quvchilarning o'quv idrok qilish faoliyati va uni o'tkazish (sinfda, tabiatda) sharoitlariga muvofiq holda tashkil qilinishidir.

**O'quvchilar bilimni baholash** - o'quvchilar mavzuni qanchalik aniq va ravon tushunganliklari, javobning aniqiigi va to'liqligi, shuningdek, uning shakli, ya'ni bilimni bayon qilishning izchilligi va to'g'riligi hisobga olinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni O‘zRQ-637-son 2020-yil 23-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda: “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-5847 farmoni.
3. “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y 18-son, 313-modda; 19-son, 335-modda; 24-son, 490-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
8. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. – AQSh, 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston». 2017. 10.

10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: «O'zbekiston», 2017, 104 b.

11. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017, 488 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O'zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishdagi nutqi // Vatanparvar, 2018 yil, 13 yanvar.

13. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O'zbekiston”, 2001.

14. Baratov P. Yer bilimi va O'lkashunoslik. –T.: O'qituvchi 1990.

15. Baratov P., G'ofurov A., Toshmuhamedov R. –T.: “Tabiatshunoslik” Sharq, 2006.

16. Baratov P., G'ofurov A., Abduraxmonov A. “Tabiatshunoslik asoslari” –T.: O'qituvchi nash. 1982.

17. Grigoryans A.G. Okrujayushiy mir. Uchebno metodicheskoe posobie. –T.: Ukituvchi 1994.

18. Nuritdinova M. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi 2005.

19. Hamidov A., To'xtaev A. va boshqalar. Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. –T.: “O'qituvchi” 1999.

20. Mirzaxmatova Sh., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim (Uslubiy qo'llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011. – 44 b.

21. Prator O'., Shamsuvaliyeva L. va boshqalar. Botanika. Darslik. – T.: 2010.

22. Mustafaev S.M. Botanika. Darslik. Toshkent, 2002.

23. Sharipova D., Xodieva D., Shirinov Sh. “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi”. –T.: darslik. 2018.

24. Mirzaxmatova Sh., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim (Uslubiy qo'llanma). –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011. – 44 b.
25. Xaydarov K.S. “Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof – muhit bilan tanishtirish”. –T.: O'qituvchi, 1992.
26. Toshmuxamedov R. “Botanika (O'simliklar sistematikasi)”. –T.: 2008.
27. To'xtayev A. “Ekologiya” –T.: O'qituvchi, 1998.
28. Yormatova D. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. –T.: «Aloqachi» nashriyoti, 2008, 312 b.
29. Vaxobov H., Alimqulov M.R., Sultanova N.B. Geografiya o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: 2020.
30. Vaxobov H., Mirzamahmudov O.T. Geografiya o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). –N.: 2016.
31. Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics. 2010.
32. By James I. Nienhuis – Genesis Veracity, Houston, Texas, 2003. – 210r. ISBN: 0-9726206-0-5.
33. Szallasi Z., Periwal V. & Stelling J. (eds). System Modeling in Cellular Biology: From Concepts to Nuts and Bolts. MITPress, 2006.

**Internet saytlari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
1-§. Geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish.....	5
2-§. Innovatsion texnologiyalarning ilmiy nazariy asoslari.....	11
3-§. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.....	16
4-§. Geografiyani o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinli darslardan foydalanish yo‘llari.....	22
5-§. Geografiyani o‘qitishda modulli darslardan foydalanish yo‘llari.....	30
6-§. Geografiyani o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi.	35
7-§. Geografiyani o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasi. . . .	39
8-§. Geografiyani o‘qitishda loyihalash texnologiyasi. . . . .	44
9-§. Geografiyani o‘qitishda kartografik texnologiyasi. . . . .	50
10-§. Amaliy metodlar turlari hamda tavsifi. . . . .	54
<b>Glossariy</b> .....	73
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	79

**URALOV ELIBOY OMONOVICH**

**GEOGRAFIYANI  
O‘QITISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

Bosishga ruxsat etildi. 18.11.2023 y.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog‘i 5.25, Adadi 50. Buyurtma № 38  
Bahosi kelishuv asosida

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,  
Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A–uy.